



MATONATLI XALQIMIZ SHONLI G'ALABAGA MUNOSIB HISSA QO'SHGAN VATANIMIZ QAHRAMONLARI BILAN HAR DOIM FAXRLANADI

Ikkinchi jahon urushining tugaganiga 80 yil bo'ldi. Shuncha vaqt o'tsa-da, uning tarixi, kulfat va musibatlari unutilmaydi. Aksincha, urushning mudhish oqibatlari, tinchlik-osoyishtalik qadrini yodga soladi. 9-may — Xotira va qadrlash kuni zamirida ana shunday mohiyat mujassam.



Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu sana munosabati bilan G'alaba bog'iga tashrif buyurib, xotira marosimida ishtirok etdi. Bog' bo'yab mungli kuy taraladi. Bu yerdagi har bir yodgorlik, timsol va bitiklar mudhish urush haqiqatlarini ifoda etadi, xalqimizning g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini urg'ulaydi. Bog' bugungidek bayram kunlarida, ayniqsa, gavjum bo'ladi.

So'nggi yillarda shakllangan an'anaga muvofiq, davlatimiz rahbari "Matonat madhiyasi" yodgorligi poyiga gulchambar qo'ydi. Bu muazzam obida urushda xalqimiz chekkan azob-uqubatlari, matonat va yo'qotishlarning ifodasidir. Hujjatlarning dalolat berishicha, fashizmga qarshi qonli janglarda o'sha paytda 6 million 800 ming nafarni tashkil

etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok etgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo'lgan, 158 ming nafari bedarak yo'qolgan, 50 mingdan ortig'i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo'lgan, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytgan. O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar



bilan mukofotlangani ularning jasoratidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylangan, jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', kiyim va oziq-ovqatlar yetkazib turilgan. G'oyat og'ir sharoitga qaramay, xalqimiz urush hududlaridan ko'chirib kelingan 1 million 500 mingga yaqin

insonni, jumladan, ota-onasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolani o'z bag'riga olib, mehr ko'rsatgan.

— Bular chinakam mardlik va qahramonlik solnomasidir. Bunday murakkab va shonli g'alabaga munosib hissa qo'shgan matonatli xalqimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi. Bu qahramonliklarni hech qachon unutmashimiz, yoshlarimizga

yetkazishimiz kerak. Ayniqsa, hozirgi tahlikali zamonda buning ahamiyati nihoyatda katta. Hammamiz vatan himoyasiga har kuni tayyor bo'lishimiz kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davomi 2-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrlı vatandoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni, ko'pmillatli butun xalqimizni qutlug' ayyom — Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk G'alabaning 80 yilligi bilan chin qalbindan muborakkab etib, barchangizga o'zining yuksak hurmatim va euzu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Mana shu hayajonli, ayni paytda iztirobli damlarda insoniyatni fashizm balosidan xalos etishga munosib hissa qo'shgan qahramon ajdodlarimizni yod etib, ularning yorqin xotirasini oldida ta'zim qilamiz.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishda oltinga teng duolari, maslahatlari bilan faol ishtirok etib kelayotgan muhtaram urush va mehnat faxriylariga alohida qutlov va tashakkurlarimizni izhor etamiz.

Hech shubhasiz, tinch va farovon hayot posbonlari ulug'lanadigan ushbu munavvar ayyomda mustaqillik yillarida Vatanimiz ozodligi, xalqimiz osoyishtaligini himoya qilish yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan jasur harbiylarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdır.

Aziz do'stlar!

Bashariyat tarixidagi eng dahshatli qirg'in bo'lgan Ikkinchi jahon urushi dunyo xalqlari, jumladan, el-yurtimiz boshiga solgan og'ir musibatlar, mislsiz kulfat va yo'qotishlar hech qachon unutilmaydi.

Bu — zamon va makon chegarasini bilmaydigan chinakam mardlik va qahramonlik solnomasidir.

Bunday muazzam, shonli xalqarga munosib hissa qo'shgan matonatli xalqimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Keyingi yillarda jonkuyar olim va mutaxassislarimizning ilmiy izlanishlari tufayli Ikkinchi jahon urushi tarixining yangi sahifalari bilan tanishmoqdamiz.

Hujjatlarning dalolat berishicha, fashizmga qarshi qonli janglarda o'sha paytda 6 million 800 ming nafarni tashkil etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok etgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo'lgan, 158 ming nafari bedarak yo'qolgan, 50 mingdan ortig'i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo'lgan, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytgan.

O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani, 301 nafari Sovet Ittifoqi

Qahramoni degan yuksak unvonga, 70 nafardan ziyodi uchala darajadagi "Slava" ordeniga sazovor bo'lgani, hech shubhasiz, yurtimiz vakillari tomonidan urush maydonlarida ko'rsatilgan jasorat va matonatning yuksak amaliy e'tirofidir. Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylangani, respublikamizdan jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar yetkazib berilgani o'sha suronli davrning yana bir unutilmas sahifasini tashkil etadi.

Urush olovi ichida qolgan hududlardan yurtimizga 170 dan ortiq zavod va fabrika ko'chirib keltirildi, qisqa muddatda 280 ta yangi korxona bunyod etildi.

Xalqimiz g'oyat og'ir va murakkab sharoitda urush hududlaridan o'lkamizga olib kelingan 1 million 500 mingga yaqin insonni, jumladan, ota-onasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolani bag'riga olib, ularga mehr-muruvvat ko'rsatdi.

Tarix kitobiga muhrlangan bunday misollarni bugun yana bir bor esga olar ekanmiz, har qanday vaziyatda ham insoniy e'tiqodiga sodiq qolgan olijanob va bag'rikeng xalqimizdagi buyuk gumanistik fazilatlariga tahsin va tasannolar aytamiz.

Qadrlı vatandoshlar!

So'nggi yillarda qahramon ajdodlarimizning hayoti va faoliyati, mardlik va matonatini chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ularning shonli an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Bu borada Toshkent shahrida bunyod etilgan G'alaba bog'i, hududlardagi "Vatanparvar" bog'lari muhim rol o'ynamoqda. Ushbu tabarruk maskanlar qisqa muddatda barcha yurtdoshlarimiz va chet ellik mehmonlar uchun qutlug' ziyoratgohlarga aylandi.

Ana shunday euzu ishlarimizning davomi sifatida G'alaba bog'i hududida ona yurt qalqonlari sharafiga barpo etilgan yana bir tarixiy yodgorlik — **Millat fidoyilari** majmuasi ham, hech shubhasiz, g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Ishonchim komil, yuzlab marhum bahodir harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo'yilgan ushbu muhtasham badiiy obida el-yurtimiz chin dildan intiladigan va faxrlanadigan yana bir mo'tabar maskan bo'lib qoladi.

Hurmatli do'stlar!

Bugungi kunda **"Inson qadri uchun, inson baxti uchun"** degan ezu g'oya hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda.

Bu yil Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 10 ming AQSH dollari miqdorida, ushbu toifaga tenglashtirilgan shaxslarga 25 million so'm, mehnat fronti qatnashchilariga 3 million so'mdan bir martalik pul mukofotlari va "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligi" yubiley medallari topshirilgani muhtaram faxriylarimizga e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

Urush faxriylari va nogironlari uchun tibbiy va ijtimoiy xizmatlar, jumladan, patronaj xizmati ko'rsatilmogda. Ular o'z xohishlariga ko'ra sanatoriyalarda davolanmogda.

Ushbu quvonchli kunlarda xalqimiz mo'tabar keksalarimiz, urush va mehnat faxriylarini ziyorat qilib, ularning duosini olmogda. Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining oila a'zolarining holidan xabar olinib, ularga zarur ko'mak va yordamlar ko'rsatilmogda.

Albatta, biz bugungi tinch, ozod va erkin hayot uchun o'zining aziz jonini ham ayamadan kurashgan bunday fidoyi insonlarning oldida doimo qarzdormiz. Ular bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning mehrini, e'tiborini his qilib yashaydilar.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalash, diyorimizdagi tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo ahillik va totuvlikni asrash yo'lida qahramon ota-bobolarimizning Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'rsatgan sabot va matonati biz uchun hamisha ibrat maktabi, kuch va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu unutilmas ayyomda siz, azizlarni, muhtaram faxriylarimizni, butun xalqimizni yana bir bor samimiy tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz doimo omon bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O'ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA FEDERATSIIYASIGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni amaliy tashrif bilan Moskva shahriga keldi.

O'zbekiston yetakchisi uchun ajratilgan qarorgohda davlatimiz rahbarini Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o'rinbosari Maksim Oreshkin va Hukumat Raisining birinchi o'rinbosari Denis Manturov kutib oldilar.

Tashrif dasturiga muvofiq, Prezidentimiz Ikkinchi jahon urushidagi G'alabaning 80 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etadi hamda qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazadi.

O'za



Har yil 9-may sanasi yaqinlashganida ayni kuchga to'lgan, norg'ul yigitlik chog'imni, shu bilan birga, eng sinovli, eng og'ir kunlarni eslayman. Oradan shuncha vaqt o'tibdi. Salkam yuz yoshga kiriyapman. Shukr, hamon tetikman. Bu ham bejiz emas, davlatimiz bizni o'z holimizga tashlab qo'ymagan. Keyingi yillardagi o'zgarishlar sabab kafolatlangan ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatilyapti.

Prezidentimiz bergan imtiyozlardan foydalanib kelyapman. Masalan, bepul tibbiy xizmat, dori-darmonlar bilan ta'minlanganmiz. Xudoga shukr, bolalarim, nabiralirim serob, ular ham mehribon. Qarashib, hech narsadan kam qilayotgani yo'q. Lekin davlatimiz rahbarining e'tibori, yordami odamga o'zgacha quvvat beradi. Kayfiyatimiz ko'tariladi, e'tiborda, e'zozda ekanimizdan butun oilamiz bilan faxrlanamiz-da!

Davomi 2-betda



2025-yil 9-may, 94-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON

MATONATLI XALQIMIZ SHONLI G‘ALABAGA MUNOSIB HISSA QO‘SHGAN VATANIMIZ QAHRAMONLARI BILAN HAR DOIM FAXRLANADI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-fevraldagi qaroriga muvofiq, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80-yilligi hamda Xotira va qadrlash kuni munosib nishonlanmoqda. Bugungi avlodlar tinchligi, mamlakatimiz barqarorligi uchun jon fido qilgan insonlar xotirasini hurmat bilan yodga olinmoqda. Ayni vaqtda hayot bo‘lgan mehnat faxriylari va keksalarga ehtirom ko‘rsatilmoqda.

Tadbirida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mahalla faollari va nuroniylar ham ishtirok etib, mazkur yodgorlik poyiga gullar qo‘yishdi.

Davlatimiz rahbari bog‘da o‘rnatilgan “Xotira nuri” kompozitsiyasini ham ko‘zdan kechirdi. U Ikkinchi jahon urushi va front ortida mehnat qilgan o‘zbekistonlik qahramonlar xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan. Monument parvoz qilayotgan ikki qush shaklida bo‘lib, katta va yosh avlodlar o‘rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi.

Asar tarixiy meros va zamonaviy san‘atni o‘zida mujassam etgan. Unga QR-havola o‘rnatilgan bo‘lib, tashrif buyuruvchilar majmua va urush qahramonlari haqida o‘qishi, “Xotira nuri” kitobini yuklab olishi mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev G‘alaba bog‘idagi “Millat fidoyilari” xiyobonida bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining g‘oyasi asosida tashkil etilgan ushbu yodgorlik mustaqillik yillarida mamlakatimiz himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining xotirasiga bag‘ishlangan.

Majmua yuqoridan qaraganda davlatimiz bayrog‘idagi yarim oy va o‘n ikki yulduz shaklida namoyon bo‘ladi. Qariyb ikki metrli yulduzlarning qirralari bitiktosh vazifasini ham o‘taydi. Ularning yoq tarafflariga 196 nafar qahramonlarimiz nomi zarhal harflar bilan yozilgan. Bu bitiklar yoniga monitorlar o‘rnatilgan bo‘lib, millat fidoyilari to‘g‘risida

ma’lumotlar foto va videolar orqali namoyish etib boriladi. Ya’ni ularning faqat nomi emas, bolaligi, orzulari, ishi va oilasi ko‘z oldimizda jonlanadi.

Bayrog‘imizdagi yarim oy mo‘jaz amfiteatr shaklida xiyobonga ko‘rk bag‘ishlagan. Uning tepasidan poklik ramzi — suv oqib turadi. Oyning orqa tarafidagi haykaltaroshlik kompozitsiyasi badiiy g‘oyaga yakun yasagan. Uning markazida farzandini harbiy xizmatga kuzatgan ota-ona siymosi gavdalanirilgan. Ikki yonida Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Oliy sud va prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo‘mitasi, Milliy gvardiya kabi tuzilmalar xizmatchilari aks ettirilgan.

Prezidentimiz shu yerda marhum harbiy xizmatchilarning oila a‘zolari bilan uchrashdi.

— Har yili bu yerga kelib, Ikkinchi jahon urushidagi yo‘qotishlarni eslaymiz. Endi mustaqillik fidoyilariga bag‘ishlangan ushbu majmuani tashkil qilganimiz xayrli ish bo‘ldi. Chunki ular ham milliy qahramonlarimiz. Shu jihatdan, bu maydonning ma’naviy ahamiyati katta. Bu ham o‘zlikni anglash, bu ham inson qadri, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari vatan himoyachilarining oila a‘zolariga chuqur hurmatini bildirdi.

— Bu jasur o‘g‘lonlar tahlikali vaziyatda o‘zini o‘ylamay, burchiga sodiq qolib, xalqi uchun jonini fido qilgan. Hozirgi tinchlikda, osmonimiz musaffoligida ularning katta hisssasi bor. Oilalari, barcha yaqinlari bilishi kerakki, ular oramizda xuddi tirikdek, nomlari hech qachon o‘chmaydi. Buni mana shu maydonda muhrlab qo‘ydik. Men ularning ota-onalariga, turmush o‘rtloqlariga ta‘zim qilaman. Farzandlari qahramon otalariga munosib bo‘lishini istayman, — deya ta’kidladi Prezident.

Millat fidoyilari tug‘ilgan tumanlarda xotira tadbirlari o‘tkazish, ularning mardligini yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatish, qahramonliklari haqida asarlar yozish zarurligi ta’kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Ikkinchi jahon urushi va mehnat fronti qatnashchilarini ham ziyorat qilib, bayram bilan tabrikladi.

— Avvalo, sizlarni, siz orqali barcha faxriylarimizni G‘alabaning 80 yilligi bilan tabriklayman. Xalqimiz nomidan barchangizga chuqur minnatdorlik bildiraman. Sizlarning qahramonligingiz tufayli bugungi avlodlar shunday tinchlik-farovonlikda yashayapti. Bu tinchlikning qadri yoshlarimizga sizlar orqali yetkazishimiz kerak. Hayotingizning o‘zi bizga namuna. Har bir gapingiz juda katta ta’lim, bilim. Ilohim, sog‘lig‘ingiz mustahkam bo‘lib, ko‘p yillar faxrimiz, duogo‘yimiz bo‘lib yuring, — deya tilak bildirdi Shavkat Mirziyoyev.

Nuroniylar yurtimizda tarixiy xotira ulug‘langani, keksalarga katta hurmat-e’tibor ko‘rsatilayotganini aytib, duolar qilishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-fevraldagi qaroriga muvofiq, urush va mehnat faxriylariga munosib hurmat ko‘rsatilmoqda. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 10 ming AQSH dollari miqdorida, ushbu toifaga tenglashtirilgan shaxslarga 25 million so‘m, mehnat fronti qatnashchilariga 3 million so‘mdan bir martalik pul mukofotlari berilmoqda. Ko‘plab muhtaram nuroniylarga “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligi” yubiley medallari topshirilmoqda.

Urush faxriylari va nogironlari uchun tibbiy va ijtimoiy xizmatlar, jumladan, patronaj xizmati ko‘rsatilmoqda. Ular o‘z xohishlariga ko‘ra sanatoriylarda davolanmoqda.

Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining oila a‘zolarining holidan xabar olinib, yumushlariga yordamlashilmoqda.

O‘zA

2025-YIL 29-30-APREL KUNLARI SAMARQAND SHAHRIDA BO‘LIB O‘TGAN “MOTURIDIYLIK — BAG‘RIKENGLIK, MO‘TADILLIK VA MA‘RIFAT TA‘LIMOTI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MUNOSABATI BILAN

Samarqand — Alloh taolo yer yuzida yaratgan eng go‘zal maskan.

Samarqand... Bu nom quloqqa qadimgi she‘r misrasidek, yulduzlar orasidagi taqdir shivirlashidek yangraydi. Bu shunchaki shahar emas, bu — yoqut va tilla ranglarida chizilgan, madaniyatning ipak liboslarida to‘qilgan

abadiylik ramzi, yer yuzidagi osmon oynasidir. Agar Alloh taolo odamlarga yer yuzida yaratgan eng go‘zal maskanni ko‘rsatmoqchi bo‘lsa, bu maskan Samarqand bo‘lar edi — nur bilan porlab turuvchi, ulug‘vor va muhtasham, sirlari murakkab, zamon qa‘ridan nigoh tashlab, tinglay oladiganlarga yurak tilida so‘zlaydigan maskan.

Samarqand boshqa shaharlar kabi paydo bo‘lmagan, u Sharq bilan G‘arb uchrashgan kuy misoli, Parvardigor tomonidan hikmat, ruh va go‘zallik ziynati bilan yozilgan qo‘lyozma kabi yaratilgan. Ilohiy rahmat qo‘li Zarafshon vodiysini yaratib, uning o‘rtasiga bilim nuri, xotira chirog‘i va abadiy go‘zallik ma‘badi bo‘lishi uchun Samarqandni joylashtirgandek go‘yo! Bu yerda har bir tosh tarixga guvoh, har bir ko‘cha qo‘lyozma sahifasi, har bir nafasda hikmat va xotira mujassam.

Samarqand go‘yo orzulardan yaralgan afsonaviy shaharga o‘xshaydi. U xalqlar samo tilida so‘zlashgan, insonlar obidalariga miniatyuralar chizgan zamonlarda gullab-yashnagan. Bu yerda Xitoy, Hindiston, Eron va Anadoludan



kelgan karvonlar to‘xtagan. Ular o‘zi bilan nafaqat mahsulotlar, balki g‘oyalar, e’tiqodlar, falsafalar va orzularni ham olib kelgan. Samarqandning bu devorlarida Amir Temur o‘tirib, o‘zining saltanati borasida tafakkur qilgan, uning ko‘chalarida Imom Abu Mansur Moturidiy kabi ulug‘ ulamolar yurgan. U o‘z aqli bilan e’tiqod yo‘lini yoritgan, ovozi Registon maydonidagi azon kabi yangragan.

Bugun men Samarqandda — Alloh taolo eng go‘zal suratda yaratgan maskanda turibman. Zamon aylanib, to‘liq bir davrni yakunlagandek his bor qalbmida. Ilohiy rahmat pardasi qalbinga to‘qilayotgandek. Yillar davomida xayolimda va ruhimda saqlagan ism — Imom Abu Mansur Moturidiy — bugun o‘z Vatani, mana shu yerga qaytdi. U faqat xotira sifatida emas, balki tirik g‘oya bo‘lib, aql va iymon nuri ila porlagan uchqun misoli, yangilangan holda qaytdi.

Bu shodlikni qanday so‘z bilan ifoda etsam bo‘ladi?! Qalbmidagi Alloh taologa bo‘lgan shukrni qanday bayon etsam ekan?! Zero, U Zot menga mana shu lahzeni his etish baxтини ato etdi. Bu lahza — Imom Moturidiy o‘z shahriga qaytgan, uning fikrlari moziy g‘ubori orasidan qayta porlab, yana yo‘l ko‘rsatuvchi yulduz kabi charog‘on bo‘lgan lahza.

Bu — ruhning yig‘isiga o‘xshash shodlik. Men yosh tadqiqotchi o‘laroq

Chikagoda, marhum ustozim huzurida o‘tirgan paytlarim esimga tushdi. U paytda deyarli unutilgan bir mavzuda — buyuk bir fikriy meros ichiga sho‘ng‘ib, yolg‘iz holda chuqur izlanishlar olib borar edim. 1986-yil edi. Men o‘shanda Alloh taolo meni bir kuni bu yerlarga — talaba sifatida emas, balki qachonlardir qilingan duo ijobat bo‘lgan lahzaaning guvohi sifatida yetaklab kelishini bilmasdim. Bugun esa Samarqandning musaffo osmoni ostida turib anglayapmanki, o‘sha vaqtdagi izlanishim faqat ilmiy qiziqish emas ekan. U men uchun yuklangan ma‘naviy omonat ekan.

Bu qanday ulug‘ bir fazilat! Bu qanday beqiyos ne‘mat — o‘z fikrlarim amalga oshganini ko‘rish baxtiga erishdim. Bu mening sa‘y-harakatim bilan emas, balki qalbami yo‘lga soluvchi, yo‘llarni ochuvchi Allohning fazli bilan ro‘y berdi. Kim o‘ylabdi deysiz, bir bosniyalik talabaning yo‘li Chikagoda o‘tib, oxir-oqibat Samarqandga yetib kelib, ana shu abadiy lahza qavoh bo‘lishi mumkinligini?! Men bu yerda oddiy mehmon sifatida emas, balki o‘sha orzuning bir bo‘lagi sifatida turibman.

Shu sababli men bu o‘rinda faqat o‘z nomimdan gapirayotganim yo‘q. Men bilim hech qachon yo‘qolmaydi, haqiqat o‘z vaqtini kutadi deb ishonganlar va pok hamda asl narsa hech qachon o‘lmaydi — u albatda qaytadan namoyon bo‘ladi deb ishongan har bir inson nomidan so‘zlayapman.

Alloha hamdlar bo‘lsin — U Zot qalblarni qachon va qanday quvontirishni biladi. U biz xayol qilganam ne‘matlar bilan bizni siylaydi. U menga bugun Samarqandda bo‘lish baxtinini nasib qildi — begona sifatida emas, balki shu ro‘yoning bir parchasi, shu nurning bir bo‘lagi sifatida.

Shayx Mustafo
Ibrohim Cherich,
Bosniya sobiq bosh muftiysi

YUKSAK QADR VA E‘ZOZDAN QUVVAT OLYAPMAN

Boshlanishi 1-betda

Hozir aytaversam, ertakday eshitiladi. Lekin haqiqat shu: otadan erta yetim qoldim. Oilada katta farzand edim, onamga ko‘makchi bo‘ldim. Ikkinchi jahon urushi vaqtida front ortida turib og‘ir mehnat qildim. Urushga yuboriladigan ta‘minot bizning zimmamizda edi.

Kolkhozdagi ishim kattalarga ma‘qul keldi — o‘zim ham o‘rganib qolgandim — bitta joyda 40 yildan ziyod vaqt ishladim. Xudoga shukr, mahalladoshlarim hurmat qiladi. Gohida maslahat so‘raydi. To‘y-ma‘rakalarda to‘rdan joy beradi. Bularni o‘zimcha tahlil etib, shukrona aytaman. Bu kunlarga yetmaganlar qancha axir.

Prezidentimiz urush qatnashchilari va front orti mehnatkashlarini yuksak e‘zozlab, hurmat ko‘rsatayotganidan boshimiz osmonga yetadi. Ming shukrki, nevara-chevaralarim o‘q ovoziini eshitmay kamol topyapti. Aslida, mana shu eng katta baxt.

Toshkent viloyati eng katta hududlardan bo‘lgani uchun urush qatnashchilari ham ko‘p. Viloyatimiz markazi — Nurafshon shahrida zangiotalik mushtipar ona va uning o‘g‘illariga qo‘yilgan haykal tumandagi



Сайджалол САЙДКАМЛОВ,
меҳнат фахрийси

barcha urush faxriylariga ko‘rsatilgan ehtirom, aslida. Yoshlarimiz shunday joylarda bo‘layotgan katta-katta bayramlarda ko‘plab urush qatnashchilarini ko‘rib, ular bilan suhbatlashib, xalqimizning o‘tmishini biliyapti. Mehnat faxriylariga havas bilan halol, to‘g‘ri yo‘ldan borishni niyat qilayotgan bo‘lsa, ajabmas. Eng muhimi, ular shunday tinch, farovon kunlarning qadriga yetish kerakligini his qiladi.

YURTIMIZ IQBOLI, ELIMIZ FAROVONLIGINI TILAB DUO QILAMAN

Prezidentimizning Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80-yilligi bilan yo‘llagan tabrigini, jumladan, “Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda oltinga teng duolari, maslahatlar bilan faol ishtirok etib kelayotgan muhtaram urush va mehnat faxriylariga alohida qutlov va tashakkurlarimizni izhor etamiz”, degan so‘zlarini eshitib, benihoya quvondim.



To‘lagan IMOMOV,
Ikkinchi jahon urushi
qatnashchisi

ishlatishni bilaman”, deganman. O‘shanda atigi 17 yoshda edim.

Ko‘pchilik safdoshlarim mendan katta edi. Avval bizga Farg‘onada qurol ishlatish o‘rgatildi. So‘ng 1942-yil dekabrda Belarus sarhadlarida kechayotgan qonli urush maydonlariga olib kirildik. Hali ham urush dahshati ko‘z oldimdan ketmaydi. Ishonmaysiz, frontda o‘tkazgan ilk kunlarimdayoq o‘zimni bir necha yoshga ulg‘aygandek his qilganman. Angladimki,

urush degani o‘yinchoq emas, fojianing o‘zginasi. Safdoshlarimdan yosh bo‘lsam ham tirishqoq edim. Shuning uchun urushning ilk kunlaridayoq pulemyotchi qilib qo‘yilganman. 1944-yil jang maydonida minani bosib olib, chap oyog‘imning to‘rtinchi barmog‘idan ajraldim. Uzoq vaqt harbiy gospitalda davolangan, Toshkentga qaytib keldim. U davrlarni sira eslagim kelmaydi. Mana bugun e‘zoz-etiromda, tinchligimiz, farovonligimizga shukrona keltirib o‘tiribmiz. Tilimizda duo, qalbmizda xotirjamlik.

Ko‘cha-ko‘yda yoki tadbirlarda yoshlarni oldimga yig‘ib, hozirgi farovon hayot, tinch-totuvlik o‘z-o‘zidan kelib qolmaganini, uning qadriga yetish kerakligini aytishdan charchamayman.

Davlatimiz rahbari bu tinchlikning qadriini yoshlarimizga biz orqali yetkazish kerakligini, hayotimizning o‘zi ularga namuna ekanini ta’kidladi. Rostdan ham imkon topdim deguncha yoshlarga urush xotiralarini so‘zlab beraman, bugungi erkin va obod turmushimiz qadriga yetish kerakligini bot-bot takrorlayman. Hozir yoshlarga qaratilayotgan e’tibor va imkoniyatlardan qo‘ldan kelganicha foydalanib, yetuk kadr bo‘lib yetishish, jonajon O‘zbekistonimizning sharafiga sharaft, obro‘sig‘a obro‘ qo‘shish kerakligini ta’kidlayman.

Bu yil yuz yoshga to‘ldim. Xalqimizning hurmat-ehtiromi, davlatimizning ham moddiy, ham ma‘naviy qo‘llab-quvvatlovidan mamnunman. Umrim so‘ngiga qadar yurtimiz iqboli, xalqimiz farovonligini tilab duo qilaman.

“AKADEMIK XAB” TASHKIL ETILADI

Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste‘molini tartibga solish hamda tibbiy ta’limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda eng og‘riqli muammo — bolalar onkogematologiyasi xususida to‘xtalib o‘tildi. Afsuski, yurtimizda bunday kasalliklarning 75 foizi so‘nggi bosqichda aniqlanayotgani tizimda qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘pligiga ishoradir. Shu bois, xuddi onkologiyada bo‘lgani kabi bolalar saratoniga qarshi kurashish bo‘yicha ham besh yillik dastur qabul qilinishi, bunga kamida 110 million dollar yo‘naltirilishi ko‘zda tutilmoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Dasturdan maqsad — bolalar saratonini erta bosqichda aniqlash ulushini 65 foiz, onkologik va onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalarning bir yillik yashovchanligini 34 foizdan 90 foizgacha, besh yillik yashovchanligini esa kamida 60 foizgacha oshirish. Saraton kasalligiga chalingan bolalarni 100 foiz ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bilan qamrab olish, onkogematologik kasalliklarga tashxis qo‘yish muddatini 4 kungacha va onkologik kasalliklarga tashxis qo‘yish muddatini 10 kungacha qisqartirish, onkologik va onkogematologik kasalliklarni davolashni 10 kundan 20 kungacha muddatda boshlash nazarda tutilyapti. Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inida bolalar saratoni belgilarini aniqlash uchun sharoit yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish, ustuvor tartibda hududlardagi tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalar saratoniga qarshi kurashishning barcha bo‘g‘inida biznes jarayonini raqamlashtirish vazifalari ham dasturdan o‘rin olgan.

Bolalar onkogematologiya markazi huzurida bolalar saratoni bo‘yicha akademik xab tashkil qilinib, xorijdan yuqori malakali mutaxassislar olib kelinishi qayd etildi.

Biz saraton kasalligini erta bosqichda aniqlashimiz uchun kadrlar bilan to‘la ta‘minlangan bo‘lishimiz va boshqa tor ixtisoslikdagi mutaxassislar, oilaviy shifokorlarni kasallikni erta aniqlashga jalb qilishimiz kerak. Yevropaning yetakchi universitetlari klinikalari ko‘magida tashkil etiladigan “akademik xab” Markaziy Osiyoda yagona bo‘ladi. Unda mintaqamizdagi shifokorlar bolalar saratoni kasalliklarini erta aniqlash va davolash bo‘yicha xalqaro standartlar asosida o‘qitiladi.

Xalqaro sertifikatlashtirish va uzluksiz tibbiy ta‘lim tizimi bo‘yicha ball to‘plash standartlariga mos keladigan xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy etish, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirishni tashkil etish orqali bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi xizmatini uchun malakali tibbiy va fanlararo ilmiy kadrlarni, xususan, bolalar onkogematologlarini tayyorlash yangi xabning asosiy faoliyatiga kiradi. Shuningdek, ushbu faoliyat bolalarda onkologik va onkogematologik kasalliklarni erta aniqlash, tashxislash va davolashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan sohada ilg‘or klinik va amaliy tadqiqotlarni tatbiq qilish hamda innovatsiyalarni joriy etish, mintaq mamlakatlari tibbiyot muassasalarining bu boradagi ilmiy va ta‘lim salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, strategik rejalashtirish va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun bolalar saratoni bilan kasallanishning epidemiologik tendensiyalarini tahlil qilish va prognozlashni o‘z ichiga oladi. Joylardagi bolalar shifoxonalarining



onkogematologiya bo‘limlari kasallikni erta bosqichda aniqlaydigan eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlanishi ko‘zda tutilmoqda. Bu bilan onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarning profilaktikasi, diagnostikasi, kasalliklarni erta aniqlash, davolash va parvarishlash tizimi takomillashtiriladi.

Bu qanday amalga oshiriladi? Birinchi navbatda, patronaj hamshiralari va oilaviy shifokorlar saraton kasalliklariga taxminni aniqlash uchun so‘rovnomna, tibbiy ko‘rik o‘tkazishi va birlamchi skriningga jalb etilishi hisobiga sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘ini faoliyati sifatini qayta tashkil etiladi. Keyin barcha tuman va shaharda saraton va boshqa kasalliklarni erta bosqichda tashxislash imkonini beruvchi zarur uskunalar bilan jihozlangan tibbiy laboratoriya xizmatlari ko‘rsatuvchi markazlashtirilgan laboratoriyalar tarmog‘i rivojlantiriladi.

Tahilllar natijasiga ko‘ra, saraton mavjudligi taxmin qilingan bolalarni tezlashtirilgan holda tashxislash va davolash tizimini (“yashil” yo‘lak) joriy etish, bunda bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi xizmatining butun vertikal bo‘ylab bemorlarni yo‘naltirishning reglamentini tasdiqlash va unga rioya qilish nazarda tutiladi.

Shohrux XO‘JAYEV,
Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va
immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
bosh shifokori o‘rinbosari



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz

9 MAY — Xotira va qadrlash kuni

BUYUK AJDODLAR XOTIRASIGA E'TIBOR VA EHTIROM

MARD O‘G‘LONLARIMIZ JASORATI, MATONATI HAMDA FIDOYILIGINI YURAGIMIZDA UMRBOD SAQLAYMIZ



Mirzayusup RUSTAMBOYEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘i, yuridik fanlar doktori,
professor

“Urush xalqlar uchun — ko‘z yosh va qon, bu — bevalar va boshpanasizlar, bu — to‘zutilgan kulba, o‘ldirilgan yoshlik va tahqirlangan keksalikdir”, degan edi ulug‘lardan biri. Darhaqiqat, urush manzarasi fojia, ichiga tushsang esa dahshat. Tadqiqotlarga ko‘ra, bugunga qadar 15 mingdan ortiq katta-kichik urush bo‘lib o‘tgan. 5000 yil ichida faqat 292 yilgina insoniyat tinch yashagan ekan. Shu bois, aynan urushga “Inson va tabiat ustidan qilingan ulkan haqoratlardan biri” deb ta’rif berilgan.

Insoniyat boshiga eng katta kulfat olib kelgan Ikkinchi jahon urushi millionlab begunohlarning o‘limiga, mislsiz yo‘qotish va talafotlarga sabab bo‘lgan. Olti yil davom etgan bu qonli jangu jadalda o‘sha paytda dunyodagi 73 davlatdan 62 tasi, Yer yuzi aholisining 80 foizi qatnashgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida frontga safarbar etilgan qariyb 2 million o‘zbekistonlik jangchidan 540 mingga yaqini halok bo‘lgan, 158 mingdan ziyodi bedarak yo‘qolgan, 870 mingdan ortig‘i turli jarohat olgan, 60 mingdan ziyodi esa nogiron bo‘lib qaytgan. O‘zbekiston urush hududlaridan evakuatsiya qilingan 1 million 500 mingga yaqin insonga boshpana bergan, ota-onasidan judo bo‘lgan 250 ming yetim bolaga mehr-oqibat ko‘rsatgan.

Yuqoridagi raqamlar ortida mash’um taqdirlar, buyuk ajdodlarimizning muqaddas xotirasini mujassam. Ular g‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yorqin ifoda etib turibdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan 82 faxriy hayot. Ulardan eng yoshi ulug‘i 115 yoshda.

Joriy yilda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga 80-yil to‘ladi. Shu bois, qahramon ajdodlarimizning muqaddas xotirasini yod olib, pok ruhiga hurmat bajo keltirishning ayni fursati.

“O‘zbekiston bu — front orqasi emas, O‘zbekiston — jang maydoni”

Ha, aynan shunday. O‘sha davrlarda O‘zbekiston rahbari bo‘lgan Usmon Yusupovning bu so‘zlari o‘z vaqti va o‘rmda aytilgan. Buni yuqoridagi katta-katta raqamlar ham yaqqol ifoda etib turibdi. Umumxalq ishiga aylangan urush uchun, g‘alaba uchun hamma bir yoqadan bosh chiqarib, ko‘mak qo‘lini cho‘zgani, ayniqsa, O‘zbekiston front uchun nima zarur bo‘lsa, barcha-barchasini to‘laqonli yetkazib berishda oldingi o‘rinlarda bo‘lgani isbot talab qilmaydigan haqiqat.

Shunday ekan, mudhish urush el-yurtimiz

uchun qanday mislsiz talafot va musibat olib kelganini, ota-bobolarimiz g‘alaba va or-nomus uchun jonini baxshida etganini doim yodda tutmog‘imiz lozim.

Urush yillari yurtimizdan jang maydonlariga 2000 dan ziyod samolyot, ko‘plab qurol-yarog‘, harbiy-sanitariya poyezdi, yuzlab dala oshxonasi, chodirlar, ulkan miqdorda oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlar yetkazib berilgan.

Ikkinchi jahon urushida qatnashgan o‘zbekistonliklarning tarixini tiklash, jangovar yo‘lini aniqlash, bedarak yo‘qolgan urush qatnashchilarini ilmiy asosda aniqlash va xotirasini abadiylashtirish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmog‘da. Tadqiqotlar asosida yangidan yangi ma’lumotlar aniqlanmog‘da.

1941-1943-yillarda mamlakatimiz aholisi mudofaa fondiga 475 million rubldan ortiq mablag‘, 22 million rublik qimmatbaho shaxsiy buyumlarini ixtiyoriy topshirgani g‘alabani yaqinlashtirish yo‘lidagi navbatdagi amaliy harakat bo‘lgan.

Front ortidagi qahramonliklar

Urush boshlangan birinchi kunlardan o‘zbekistonlik front uchun mahsulotlar yetkazib bera boshladi. Ko‘p hollarda bunday amaliy ishlarining bevosita tashabbuskori ham bo‘ldi. Dahshatli qirg‘inbarot kezarida O‘zbekiston xalqi “Hamma narsa — front uchun, hamma narsa — g‘alaba uchun!” degan hayotiy e’tiqod bilan yashab, mamlakatimiz front ortidagi mustahkam ta’minot bazasiga aylandi. Ko‘p millatli aholining fidokorona mehnati bilan respublikamizdagi 300 ga yaqin korxonada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga 151 ta zavod



ko‘chirib keltirildi va g‘oyat qisqa muddatda ishga tushirildi. Minglab urush qatnashchisi mamlakatimizda tashkil etilgan harbiy gospitallarda davolanib shifo topdi.

1941-yil dekabrda barcha sohada safarbarlik e’lon qilindi. Kadrlar, xomashyo, ishlab chiqarish vositalari tanqisligiga qaramay, o‘sha palladayoq respublikadagi 30 ga yaqin korxona mudofaa uchun mahsulot bera boshlagan. Front brigadalari tashkil etilib, 1942-yil boshida birgina “Tashselmash” zavodida ularning soni 1,5 mingga yetgandi. O‘zbekistonliklar urushning dastlabki kunlaridanoq mudofaa jamg‘armasini tashkil etish harakatida faol ishtirok etgan.

Bu jamg‘armaga jami 649,9 million so‘m pul va 55 kiloga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar topshirilgan.

Urush o‘zbek xalqining oltin qo‘li tog‘larni tolgon qilajagini, uning mehnatsevar va matonatli ekanini butun dunyoga doston etgani ham ayni haqiqat. Ayniqsa, o‘zbek xalqining haqiqiy jasorati namunasi bo‘lgan Katta Farg‘ona kanalining 45 kunda qo‘l mehnati asosida barpo etilgani ham hali-hamon tillarda doston.



Shu bilan birga, O‘zbekistonning eng yirik gidroelektr stansiyasi Farhod GESining umumxalq hashari asosida 10 oyda, Salar, Quyi



Bo‘zsu, Tovoqsoy, Oqqovoq, Oqtepa, Qibray GESlari, 1944-yil 5-martda O‘zbekistonning Bekobod metallurgiya zavodi ishga tushirilgani va boshqa amaliy ishlar ham alohida ahamiyat kasb etdi.

Urush yillarida O‘zbekiston mehnatkashlari 4 million 148 ming tonna paxta, 82 million pud g‘alla, 54 ming 67 tonna pilla, 195 ming tonna sholi, 57 ming 300 tonna go’sht, 22 ming 300 tonna jun va boshqa mahsulotlar yetkazib berdi.

O‘sha kezlarda O‘zbekistonda 29 ta oliy va 52 ta o‘rta maxsus ta’lim muassasasi faoliyat yuritib, ular soni keyinchalik ko‘chirib keltirilgan

31 ta OTM va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yanada ortgan. Bu o‘quv muassasalarida urush yillari mobaynida 11 ming 750 yuqori malakali mutaxassis va 6673 kadr tayyorlangan.

Qisqasi, front uchun berilgan moddiy va ma’naviy ko‘mak umumiy g‘alabani ta’minlashda kalit bo‘lib xizmat qildi. Bunda o‘zbekistonliklarning har biri o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

Yangi tadqiqotlar, yangi raqamlar va yangi taqdirlar

Yangi O‘zbekiston sharoitida Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o‘rganishda tom ma’noda yangi davr boshlandi. Prezidentimiz g‘alabani 75 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida ta’kidlaganidek, shu vaqtga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va



ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan deb hisoblanar edi.

Prezident topshirig‘iga asosan amalga oshirilgan keng ko‘lamdagi ilmiy izlanishlar natijasida Ikkinchi jahon urushiga O‘zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi safarbar etilgani aniqlandi. Mamlakatimiz aholisining o‘sha paytdagi umumiy sonidan kelib chiqilsa, har uch o‘zbekistonlikdan biri qo‘liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Tengsiz janglarda mardona qatnashgan qariyb 451 ming yurtdoshimizning nomi va taqdiri shuncha yil mobaynida e’tibordan chetda qolib kelgani achinarli hol. Shu bilan birga, o‘rganishlar natijasi o‘sha davrda “qulok” sifatida boshqa o‘lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham armiyaga safarbar etilgani ma’lum bo‘ldi.

Uzoq yillar mobaynida, aniqrog‘i, urush tugagan 1945-yildan 2020-yillarga qadar O‘zbekistonning 396 ming fuqarosi urushda halok bo‘lgan deb kelingan. Aslida esa bu raqam 538 mingdan ziyod bo‘lgan. Bundan tashqari, frontda bedarak yo‘qolganlar haqidagi ma’lumotlar ham to‘liq emasdir. Hozir 158 mingdan ko‘proq hamyurtimiz urushda bedarak ketgani aniqlandi.

Bundan tashqari, ilmiy izlanishlar tufayli jangovar orden va medallar bilan mukofotlangan o‘zbekistonliklarning soniga ham oydinlik kiritildi. Shu paytga qadar bu ko‘rsatkich 120 ming deb qayd etilardi. Yangi ma’lumotlarga asosan, 214 mingga yaqin askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangani aniqlandi.

Inson xotirasi — yuksak qadriyat

Ajdodlar xotirasini chuqur o‘rganish va pok ruhini shod etish, ularga munosib avlodlarni tarbiyalash borasida tizimli ishlar qilib kelinmog‘da. Xususan, yurtimizda 9-may

— Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga hissa qo‘shgan urush va mehnat faxriylariga hamda vatan ravnaqi, taraqqiyoti va himoyasi uchun kurashgan ajdodlarimizga alohida e’tibor va chuqur ehtirom ko‘rsatish, shuningdek, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug‘lash yuksak qadriyatga aylandi.

Ikkinchi jahon urushida mardlik va jasorat, front ortida matonat hamda insonparvarlik namunalari ko‘rsatgan ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabani ta’minlashga qo‘shgan munosib hissasini keng miqyosda yoritish, urush qatnashchilari va front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizning nomlarini abadiylashtirish, ularning beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrash, yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Toshkent shahrida “Shon-sharaf” davlat muzeyi, “Mangu jasorat” va “Matonat madhiyasi” monumentlari, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarni o‘z ichiga olgan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi barpo etildi.

Majmua jamoasi tomonidan ellikka yaqin kitob-albom va monografiya, noyob hujjatlar to‘plami tayyorlanib, hozirga qadar noma’lum bo‘lgan yuzlab tarixiy faktlar aniqlanib, jamoatchilikka yetkazildi. Shuningdek, “Bobomni izlayman” loyihasi doirasida urushda ishtirok etgan 2 millionga yaqin vatandoshimiz ro‘yxati shakllantirildi. Yurtdoshlarimizdan kelib tushgan 300 dan ziyod murojaat bo‘yicha urushda bedarak ketgan 200 jangchining taqdiriga oid muhim ma’lumotlar to‘plandi.

Xalqimizning vatan himoyasi yo‘lidagi yuksak mardligi va qahramonligi avlodlar uchun namuna va ibrat maktabi vazifasini bajarib kelmog‘da. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 19-fevraldagi “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabani 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida”gi qaroridagi bunday jumlarlar xalqimizning euzu niyatlarini o‘zida ifoda etadi. “Biz tinchlik va mustaqillik uchun o‘z jonini ayamagan ota-bobolarimiz va mard o‘g‘lonlarimizning ulkan jasorati, matonati hamda fidoyiliklarini yuragimizda abadiy saqlaymiz”.

Shu bilan birga, Prezidentimizning alohida farmoni bilan vatan himoyasi yo‘lida mardonavor kurashgan buyuk ajdodlarimizga e’tibor va chuqur ehtirom ko‘rsatish, g‘alabaga bebaho hissa qo‘shgan O‘zbekiston fuqarolari — 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini munosib ravishda izzat-ikrom bilan sharaflash maqsadida “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabani 80 yilligi” esdalik yubiley medali ta’sis etildi.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari doimiy e’tiborda. Har yili ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tanantani e’lon qilib, faxriylarga mukofotlar taqdim etib berilgan kelinmog‘da. Xususan, 2025-yilda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 10 ming dollar miqdoridagi pul mukofoti topshirilgani ham amaliy ishlarining yaqqol namunasi.

Buyuk ajdodlarimiz xotirasi uchun mo‘jaz hissa

Ikkinchi jahon urushi qahramonlari, shuningdek, tarixning turli yillarida qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning oqlanganiga doir ma’lumotlarga tez-tez guvoh bo‘lamiz. Mana shunday insonlarning tarixini tiklash, qatag‘on qurboniga aylangan yoki Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan qahramonlarga bag‘ishlab O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tomonidan Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabani 80 yilligi va 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi” hamda “Tarixga bitilgan taqdirlar: kurashlar, qismatlar

“

Prezidentimizning alohida farmoni bilan vatan himoyasi yo‘lida mardonavor kurashgan buyuk ajdodlarimizga e’tibor va chuqur ehtirom ko‘rsatish, g‘alabaga bebaho hissa qo‘shgan O‘zbekiston fuqarolari — 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini munosib ravishda izzat-ikrom bilan sharaflash maqsadida “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabani 80 yilligi” esdalik yubiley medali ta’sis etildi.

va haqiqatlar” nomli kitob-albomlar tayyorlandi.

“Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi” kitob-albomi Ikkinchi jahon urushida qatnashib, qahramonlik ko‘rsatgan o‘zbekistonliklar qismati arxiv materiallari, xususan, Belarus Respublikasi arxivi ma’lumotlari asosida tayyorlanib, fotosuratlar bilan boyitilib, muzeylar, kutubxonalar va keng kitobxonlar ommasi uchun taqdim etildi.

“Tarixga bitilgan taqdirlar: kurashlar, qismatlar va haqiqatlar” kitob-albomida esa O‘zbekiston tarixining murakkab davri — XX asrda vatan tinchligi va ozodligi yo‘lida kurashib, chinakam fidoyilik namunalari ko‘rsatgan yurt qahramonlari, davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar hamda harbiy kadrlarning nohaq qatag‘on qilingani yoki surgunlarga jo‘natilgan ayanchli qismati o‘z aksini topgan.

Shuningdek, kitob-albomdan siyosiy qatag‘on qurboniga aylangan vatandoshlarimiz taqdiridan hikoya qiluvchi yangi ma’lumot va fotosuratlar ham o‘rin olgan.

O‘zbekiston — tinchliksevar mamlakat

Bugun ham dunyoning turli burchaklarida jangu jadallar, harbiy harakatlar sodir bo‘lmog‘da va bunday qirg‘inbarotlar insoniyatga hali-hamon kulfat keltirishda davom etmog‘da. Bir qarashda dunyo bugun ham oxiri ko‘rinmayotgan tahlikalar, xunrezlik va kelishmovchiliklar qurshovida yashamog‘da.

Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “Bugun dunyo tahlikali bo‘lib boryapti. Har daqiqa sinovli bo‘lyapti. Bu bizga ham ta’sir qiladimi? Albatta ta’sir qiladi. Lekin xalqimiz hayotiga shu ta’sirni kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘ryapmiz. Mehnatimiz bilan, birdamligimiz bilan, Xudo xohlansa, bu sinovlardan ham o‘tamiz!”.

O‘zbekiston esa tinchlik mamlakati! Biz nafaqat o‘zimiz tinch bo‘lishni istaymiz, balki qo‘shnilarimiz, mintaqamiz, global dunyoga ham tinchlik tilaymiz. Ayniqsa, so‘nggi yillardagi tinchliksevarlik siyosati va maqsadli islohotlar tufayli yangidan yangi natijalarga erishib kelinmog‘da. Birinchi navbatda, qo‘shnilar bilan munosabatda mutlaqo osoyishtalikka erishilgani, chegara masalalari to‘laqonli hal etilgani va uzoq yillik “muzlar” erigani, BMT va boshqa tashkilotlar minbarlarida tashabbuslarimiz to‘laqonli qo‘llab-quvvatlab kelinayotgani ham shunday islohotlar, amaliy xatti-harakatlar natijasidir.

O‘tgan asrda yashagan, janglarda toblanib katta tajriba orttirgan mashhur ingliz arbobi Uinston Cherrill aytganidek, “Men aminmanki, avvalgi urushlarning xatosi takrorlanmaydi, chunki biz talay yangi xatolarga qo‘l uramiz. Urush bu — katta ehtimolga ko‘ra, qo‘pol xatolarning katalogidir”.

Shunday ekan, urush muammolarning yechimi emas, aksincha, yangi kulfatlarni, vahshiyliliklarni, mojarolarni boshlab beruvchi vositadir. Xalqimiz bejiz “Bir kun urush bo‘lgan uydin qirg‘un baraka qochadi” degan fikrni bot-bot takrorlamaydi. Barchamiz tinchlikning qadriga yetib, barqarorlik uchun bir tanu bir jon bo‘lib harakat qilmog‘imiz, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmog‘imiz dardkor.

Inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg‘usi bilan barhayot. Xotira kechagi o‘tmishni, ajdodlar o‘g‘itini, milliy merosimizni anglatib turuvchi muqaddas kitob zarvaralaridek hayotimizni yoritib turadi. Qadr insonni yuksaklikka ko‘taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag‘ishlaydi.

Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, hayotni aziz vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, euzu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e’zozlash odamiylikning eng uyi mezonidir.

Deyarli har kuni poytaxtimizdagi “O‘zbekpomarkaz” ko‘rgazmalar majmuasi atrofidan o‘taman. Tashqariga o‘rnatilgan e‘lonlar taxtasidagi xabar tez-tez yangilanganiga ko‘zim tushadi. Muntazam ravishda biror yangi ko‘rgazma e‘loni ilinadi. Aksariyati xalqaro ko‘rgazmalar haqida. Kasbim taqozosi bilan o‘zim ham ana shu ko‘rgazmalarining bir nechtasida qatnashaman. Maqola uchun ma‘lumot to‘playman, ishtirokchilar bilan suhbatlashaman. Ko‘rgazma maydonini jurnalist yoki qatnashchi sifatida aylanib chiqaman. Avval ko‘rmagan mahsulotlarim, yangi innovatsiyalar meni qiziqtiradi.



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Minglab kvadrat metr maydonda tashkil etilgan pavilyon, turli ekspozitsiyalar, xorijiy davlatlardan kelgan ishtirokchilarning stendlari va undan joy olgan mahsulotlar, hatto yirik hajmdagi texnika va texnologiyalarning bir necha kun davomida namoyish etilishi uchun katta mablag‘ sarflanadi. Bitta xalqaro ko‘rgazma o‘tkazish uchun oylab tayyorgarlik ko‘rilishi, bir necha homiy tashkilot jalb etilib, yaxshigina xarajat qilinishi haqida eshitgandim. Shunday vaqtda o‘ylab qolaman: xo‘sh, oddiy odamlar uchun shunchaki namoyish maydoni bo‘lib ko‘rinadigan ko‘rgazmalar jamiyat uchun, iqtisodiyot uchun, mamlakat rivoji uchun nima beradi?

Yangi O‘zbekistonning bugungi taraqqiyoti, dunyo maydonidagi mavqei, uzoq-yaqin davlatlar bilan keng ko‘lamli aloqalari, yurtimizda tadbirkorlik uchun yaratilgan qulay va erkin muhitni nazarda tutib, tahlil qilinsa, mavzu nechog‘liq dolzarbligi oydinlashadi.

Bugun mamlakatimizda xalqaro ko‘rgazma, forum, biznes uchrashuv va boshqa tadbirlarni muntazam o‘tkazish iqtisodiy, investitsiyaviy, sanoat hayotidagi muhim voqea, yaxshi an‘angaga aylandi. Xorijliklarning yurtimizga qiziqishi ortayotgani fonda ko‘rgazmalarga keluvchilar, ishtirokchilar safi ham yildan yilga kengayib bormoqda. Nafaqat xususiy tashkilotlar, balki davlat idoralari, yirik delegatsiyalar, hatto birinchi rahbarlar ishtirokida o‘tayotgani bunday ko‘rgazmalarning ahamiyatini oshiradi. Demak,



iqtisodiyotning istalgan sohasida eng so‘nggi innovatsiyalarni namoyish etish, yangi hamkorlar topish, loyihalar, shartnomalar imzolash, investitsiyalarni jalb etishda ko‘rgazmalar amaliy maydon vazifasini o‘tamog‘da.

Ayniqsa, mahalliy tadbirkorlarni xorijlik ishbilarmonlar bilan tanishtirish, o‘zaro muloqotga yo‘l ochish, mahsulotlarining eksport hajmini oshirishda ham ko‘rgazmalar katta ahamiyatga ega. Ko‘rgazma tufayli muayyan sohaning o‘nlab, yuzlab vakillari bir vaqtda, bir joyda jamlanib, o‘z mahsulotlarini namoyish etarkan, hech bo‘lmaganda, chakana xaridor topishga erishadi. Bu eng kichik natija. Katta raqamlar esa mamlakat miqyosida ko‘zga tashlanadi. Keyingi yillardagi natijalar tahliliga qarasaq, bugun hududdardagi ko‘plab qo‘shma investitsiya loyihalari shartnomasi aynan

xalqaro ko‘rgazma yoki forumlar doirasida imzolanganiga guvoh bo‘lamiz. O‘tgan yili 2-3-may kunlari poytaxtimizda o‘tkazilgan III Toshkent xalqaro investitsiya forumida umumiy qiymati 26,6 milliard dollarga teng kelishuvlarga erishilgan edi. Yil davomida o‘tkazilayotgan qator ko‘rgazmalarda tuzilayotgan bitimlar ham iqtisodiy o‘sishga hissa bo‘lib qo‘shilayotir.

Ko‘rsatkichlar oshmasa, hisobmas!

Bolaligimdan badiiy ko‘rgazmalar, fotoko‘rgazmalarga borib, san‘at asarlarini tomosha qilishni yoqtiraman. Bu odamga o‘zgacha estetik zavq, madaniy ozuqa beradi. Tomoshabinlarning aksariyati shuning uchun boradi, ya‘ni iqtisodiy manfaat deyarli bo‘lmaydi. Ammo bu yerda ham ko‘rgazmaning boshqa vazifalari — ijodkor o‘z ishini boshqalarga ko‘rsatishi, nomini keng ommaga tanitishi, yaratgan asarlaridagi yangi yondashuvlarni namoyish qilish, kelgusida yo‘lga qo‘yiladigan hamkorliklarga zamin yaratilishi kabilar ko‘zga tashlanadi.

Ko‘rgazmalarning mazmun-mohiyati azaldan shunday bo‘lib kelgan. Aniqrog‘i, ko‘rgazma insonning moddiy va ma‘naviy faoliyatidagi yutuqlarni ommaviy namoyish etishni nazarda tutadi. Bunday tadbirlar maqsadiga ko‘ra tijoriy, ma‘rifiy-targ‘ibiy, davriyligiga ko‘ra muntazam va nomuntazam o‘tkaziluvchi, namoyish etiladigan ekspozatlar mazmuniga ko‘ra universal va ixtisoslashgan, qatnashchilari tarkibiga ko‘ra jahon, xalqaro, milliy, mintaqaviy va boshqalarga bo‘linadi.

Manbalarda keltirilishicha, dastlabki sodda shakldagi ko‘rgazmalar miloddan avvalgi II-II asrlarda Bobil, Finikiya, Misr, Yunoniston, Rim kabi davlatlarda ayrim diniy marosimlar yoki xalq bayramlarida o‘tkazilgan. Hozirgi shakldagi ko‘rgazmalar esa Yevropada XVI asr oxirida paydo bo‘lgan. Yirik korxonalar vujudga kelishi bilan mahalliy savdo ko‘rgazmalari ham o‘tkazila boshlangan. Manifaktura tizimidan mashinalashgan ishlab chiqarish tizimiga hamda umummilliy bozor munosabatlarga o‘tish davrida ko‘rgazmalarning ahamiyati katta bo‘ldi. Endi ularda texnika sohasidagi yangiliklar ham namoyish etila boshladi. XVIII asrning 60-yillaridan boshlab yirik umummilliy savdo-sanoat ko‘rgazmalari vujudga keldi. Ularda savdo bitimlari tuzilar, iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yilardi. XIX



Osiyodagi birinchi “EXPO” ko‘rgazma Yaponiyaning Osaka shahrida o‘tkazilgan va unda 76 mamlakatdan vakil qatnashgan.

Fan va texnikaning yanada rivojlanishi, ishlab chiqarishning kengayib borishi sharoitida xalqaro ixtisoslashgan savdo ko‘rgazmalarining ahamiyati yanada ortdi hamda ular XX asrda umumtarmoq ko‘rgazmalar o‘mini egallay boshladi. Hozirgi xalqaro savdo ko‘rgazmalarining ko‘pi ixtisoslashgan ko‘rgazmalardir. Ular nafaqat bir davlat, balki xalqaro savdoning rivojlanishiga yordam beradi.

Ko‘rgazmalarning rivojlanib borishi bevosita ularni o‘tkazadigan tashkilotlar, tuzilmalarning paydo bo‘lishiga yo‘l ochdi. Yurtimizdagi eng yirik xalqaro ko‘rgazmalar kompaniyasi — “Itcca Exhibitions”. Tashkilotchi kompaniyaning jahon biznes maydonida O‘zbekiston nomini ilgari surish, xalqaro sheriklikni mustahkamlash va innovatsion loyihalarni amalga oshirishdagi hisssasi ortib boryapti. Yil davomida o‘tkazib kelinayotgan “UzBuild”, “Woodtech & MebelExpo Uzbekistan”, “Buildtech”, “AgroWorld Uzbekistan”, “UzFood”, “O‘ZuPACK” va “TextileExpo Uzbekistan” kabi qator xalqaro ko‘rgazmalar xorijliklarga ham yaxshi tanish. Kompaniya ishtirokchilar uchun qulay muhit yaratish va ko‘rgazmalarni samarali tashkil etishda yuqori standartlarga amal qilmoqda. Bu esa ko‘rgazmalarga qiziqishni yanada oshiryapti.

“Itcca Exhibitions” tomonidan o‘tgan yili yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi — 113 mingdan ortiq kishini jalb etgan 20 ta ko‘rgazma, 14 ta forum va seminar o‘tkazilgan bo‘lsa, tadbirlarda 57 mamlakatdan 4517 kompaniya va brend, 141 spiker, 2512 delegat ishtirok etdi. Tadbirlar doirasida 81 mamlakatdan 13 ming 894 xorijiy mutaxassis bozorni o‘rganish, hamkorlar topish, shartnomalar tuzish, taqdimotlarini o‘tkazish uchun Toshkentga keldi. Asosiy, ko‘rgazmalarda eksporthi korxonalar ishtiroki 2023-yilga nisbatan 27 foiz oshgani kuzatildi. Tadbirlarning ko‘pi Markaziy Osiyodagi eng yirik ko‘rgazmalarga aylandi.

O‘zbekistonda samolyot ishlab chiqariladi

Umuman, bugun yurtimizda o‘tkazilayotgan xalqaro ko‘rgazmalar iqtisodiy tadbirlarning asosiy qismiga aylangan rost. Boisi, ishtirokchilarning aksari shunchaki tomoshabin emas, balki ishbilarmon doira vakillari, investorlar, delegatlardan iborat. Shuning uchun xalqaro ko‘rgazmalar doirasidagi biznes uchrashuvlar yanada gavjumlashgan, manfaatli shartnomalar imzolanyapti. Deyarli har bir ko‘rgazmada bir necha bitim, hamkorlik kelishuviga erishilishi odatiy holga aylangan. Ularning qiymati esa ko‘rgazmani tashkil etish xarajatidan ancha salmoqli ekani shubhasiz.

Shu yil 28-30-aprel kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “INNOPROM. Markaziy Osiyo” sanoat ko‘rgazmasi buning yorqin misoli. Keyingi besh yildan beri muntazam tashkil qilinayotgan yirik xalqaro ko‘rgazma odatdagidek yuqori darajada o‘tkazilib, dunyoning turli nuqtalaridan 10 mingdan ziyod ishtirokchi, 400 dan ortiq kompaniya vakillarini bir nuqtada jamladi. Davlatimiz rahbari ushbu ko‘rgazmaga tashrif buyurib, pavilyon va ekspozitsiyalar bilan tanishgani xalqaro sanoat tadbirining ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Prezidentimiz ko‘rgazmada iqtisodiy kooperatsiya uchun katta salohiyat va yangi biznes g‘oyalari ishlab chiqish borasida yaxshi imkoniyatlar mavjudligini ham ta‘kidladi.

INNOPROM ko‘rgazmasi mamlakatimiz iqtisodiyoti va sanoat maydonida alohida o‘rin tutadi. Sohadagi ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar uchun katta biznes maydoni vazifasini o‘tamoqda. Birgina misol: o‘tgan yili tadbir doirasida umumiy qiymati 4 milliard dollarlik investitsiya loyihalari va savdo bitimlari imzolangan. Kelishuvlarning asosiy qismi yurtimizning turli hududlariga to‘g‘ri kelgan.

Bu yilgi tadbir ham yirik shartnomalar, yurtimiz sanoati rivojiga hissa qo‘shadigan bitimlarga boy bo‘ldi. Masalan, ko‘rgazma doirasida “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi” AJ va Rossiyaning “Pervoye” tajriba-konstruktorlik byurosi MCHJ o‘rtasida memorandum imzolandi. Kelishuvga ko‘ra, joriy yil oktyabridan boshlab yurtimizda yiliga 100 ta samolyot ishlab chiqariladi.

— Ishlab chiqarilgan samolyotlar O‘zbekistonning ichki ehtiyojlarini ta‘minlashga

Bugun yurtimizda o‘tkazilayotgan xalqaro ko‘rgazmalar iqtisodiy tadbirlarning asosiy qismiga aylangani rost. Boisi, ishtirokchilarning aksari shunchaki tomoshabin emas, balki ishbilarmon doira vakillari, investorlar, delegatlardan iborat. Shuning uchun xalqaro ko‘rgazmalar doirasidagi biznes uchrashuvlar yanada gavjumlashgan, manfaatli shartnomalar imzolanyapti.

xizmat qiladi. Shuningdek, Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlariga eksport qilinadi, — deydi “Navoiy” EIZ direktori Habib Abdullayev. — Loyihaga ko‘ra, SP-30 modelidagi fuqarolik tipida boshqariladigan va uchuvchisiz samolyotlar ishlab chiqarish nazarda tutilgan. SP-30 butunlay metallardan yasalgan, ikki o‘rindiqli samolyot bo‘lib, Rossiyada eng ko‘p ishlab chiqariladigan yengil samolyot toifasiga kiradi. Bunday samolyotlarni ishlab chiqarish O‘zbekistonga aviatsiya sanoatiga ega davlatlar qatoriga qo‘shilish imkonini beradi.

“O‘zeltexsanoat” uyushmasi hamda Rossiyaning “Yevroangar” kompaniyasi o‘rtasida imzolangan hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum ham ikki tomonlana sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, ilg‘or texnologiyalar almashinuvi va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan. Unga ko‘ra, yurtimizning sanoat infratuzilmasi zamonaviylashtirilib, xorijiy tajribalar joriy etiladi, ishlab chiqarish quvvati kengaytiriladi. “Yevroangar” kompaniyasi bu borada katta tajribaga ega. Kompaniya Rossiyada metall konstruksiya asosida modulli sanoat binolari, logistika inshootlari, omborlar va ishlab chiqarish majmualarini loyihalash hamda qurish bo‘yicha ixtisoslashgan yetakchi korxonalardan. Hamkorlar tez yig‘iladigan, energiyatejamkor va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan qurilish yechimlarini taklif etadi. Hozirgi sanoat sohasi talab etayotgan yangicha

yondashuvlarga asoslangan faoliyatning kirib kelishi mamlakatimiz sanoat tarmoqlari rivojiga xizmat qiladi.

Umuman, yil davomida qator sohalarda bo‘yicha o‘tkaziladigan xalqaro ko‘rgazmalar bir-biriga ulanib ketadi. Ularga tayyorgarlik esa avvaldan boshlanadi: joy hozirlashdan tortib, ishtirokchilar ro‘yxatini shakllantirishgacha. Tadbirlarda odatda belgilangan sohalarda faoliyat yuritadigan vakillar ishtirok etib, tarmoqdagi yangi texnologiyalar bilan tanishadi, o‘z mahsulotlarini namoyish etib, yangi xaridorlar, biznes sheriklar topishga intiladi. Xususan, joriy yil 15-17-aprel kunlari



yurtimizning CAEx xalqaro ko‘rgazmalar maydonida sog‘liqni saqlash sohasidagi “TIHE — 2025” hamda go‘zallik yo‘nalishidagi “Beauty Uzbekistan — 2025” ko‘rgazmalari bo‘lib o‘tdi. May oyining dastlabki kunlarida esa xalqaro qurilish va ko‘chmas mulk ko‘rgazmasi o‘tkazildi.

Yil so‘ngiga qadar yana o‘nlab yirik xalqaro ko‘rgazma tashkil etilishi rejalashtirilgan. Masalan, 13-15-may kunlari “Energetika, energiya tejash, atom energetikasi, muqobil energiya manbalari” 18-xalqaro ko‘rgazmasi, 14-16-may kunlari “To‘qimachilik va tikuvchilik sanoati — “TextileExpo Uzbekistan 2025”, 9-11-sentabr kunlari “To‘qimachilik uskunalari va texnologiyalari — CAITME 2025” 16-Markaziy Osiyo xalqaro ko‘rgazmasi, 28-30-oktabr kunlari “Tog‘-kon ishi, metallurgiya va metallsozlik” 19-xalqaro ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tadi.

Joriy yilning 19-21-iyun kunlari Toshkentdagi Central Asian Expo (CAEx) ko‘rgazmalar majmuasida o‘tkaziladigan “Eco Expo Central Asia — 2025” ekologik texnologiyalar xalqaro ko‘rgazmasi esa yurtimizda ilk bor tashkil etilmoqda. Unda O‘zbekistonning “yashil” tashabbuslar ilgari surilayotgan hududlari, barqaror amaliyotni faol joriy etayotgan vazirlik va idoralar, ekologik fikrlashni o‘rgatuvchi sanoat ta‘lim muassasalari, ekomarshrutlarni taklif etuvchi sayyohlik maskanlari va boshqalar namoyish etiladi. Ko‘rgazma haqiqiy ekologik muhit yaratishi kutilmoqda. Turkiya, Xitoy, BAA, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Saudiya Arabistoni, Germaniya va boshqa 30 ga yaqin davlatdan eksponentlar ishtirok etadi.

Xorijda ham faolmiz

Ko‘rgazmalar tadbirkorlar uchun juda manfaatli. Ishlab chiqaruvchilar xorijlik

hamkorlarga o‘z mahsulotini taqdim etish orqali savdo va eksport hajmini oshiradi. Talabgor qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi. Biroq buning uchun faqat yurtimizda o‘tkaziladigan ko‘rgazmalar bilan cheklanish bugungi sharoitga to‘g‘ri kelmaydi. Ishbilarmonlar dunyo maydoniga ham chiqishi, mahsulotlarini xalqaro miqyosda taqdim etishi muhim. Shu bois, keyingi yillarda xorijiy davlatlarda “O‘zbekiston mahsulotlari” savdo yarmakalarini o‘tkazish, ularga yurtimiz tadbirkorlarini keng jalb etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatimiz biznes egalari har tomonlama ko‘mak beryapti.

— Xorijda ko‘rgazma tashkil qilib, unda ishtirok etishning o‘zi bo‘lmaydi. Bu katta xarajat talab qiladi. Kichik yoki o‘rta biznes vakili har doim ham bu xarajatlarni qoplashga tavakkal qilolmaydi. Shu bois, avvallari chet eldagi biror ko‘rgazmada ishtirok etgan o‘zbekistonlik tadbirkorlar haqida deyarli eshitmasdik. Hozir esa o‘nlab ishbilarmon jamlanib, tegishli tashkilotlar boshchiligidagi turli davlatlarda o‘tkazilayotgan ko‘rgazmalarda qatnashyapti. Sababi davlat ularni qo‘llab-quvvatlab, zarur sharoit yaratib bermoqda. Ko‘rgazma o‘tkaziladigan joyning to‘lovi davlat tomonidan to‘liq qoplanayapti. Ayrim davlatlarga borishda esa hatto biznes egalarning borish-kelish chiptasi, yukining to‘lovigacha to‘lab berilyapti. Bu yordam ishbilarmonlarni yanada ruhlantirmoqda, — deydi O‘zbekiston eksporthi uyushmasi raisi Yorqin Malikov.

— Xorijda o‘tkaziladigan xalqaro ko‘rgazmalar tadbirkorming rivojlanishi, xalqaro tajribalarni o‘rganishi, mahsuloti uchun yangi bozorlar topishi, eksport hajmini oshirishda katta o‘rin tutadi. Shu bois, mahalliy tadbirkorlarni ko‘proq chet davlatga olib borib, ko‘rgazmalar tashkil etishga intilyapmiz. Yil boshidan buyon qator davlatlarda bo‘ldik. Masalan, mart oyida O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bilan hamkorlikda 30 ga yaqin tadbirkor ishtirokida Pokistonda “O‘zbekiston mahsulotlari” savdo yarmakasi o‘tkazildi. Ko‘rgazmada dukkakli

mahsulotlarimizga talab katta bo‘ldi. Hozir hamkorlik shartnomalari imzolanish arafasida. Dubayda bo‘lib o‘tgan ko‘rgazmadan keyin esa tadbirkorlarimiz 5 million dollarlik shartnoma imzolashga erishdi.

O‘tgan oyda Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda Afg‘onistonda oziq-ovqat va farmatsevtika sohasidagi tadbirkorlar uchun ko‘rgazma tashkil qildik. Oldinlari mahalliy ishbilarmonlar Afg‘onistonga dori-darmon olib kirishga qiyinlar ekan. Afg‘oniston savdo vaziri ko‘magida bu masala yechildi. Qolaversa, Afg‘onistonda o‘zbekistonlik tadbirkorlar tuxum fabrikasi, sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonasi ochish bo‘yicha harakat boshlagan. Yaqinda uyushmamiz 10 dan ortiq tadbirkor Turkmanistonga olib bordi. Natijada umumiy qiymati 2 million dollar atrofida bo‘lgan shartnoma imzolandi. Hamkorlik doirasida kelasi haftadan Turkmanistonga 10 tonna oziq-ovqat mahsuloti eksport qilina boshlaydi.

Yil oxirigacha O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bilan hamkorlikda o‘ndan ortiq davlatda shunday ko‘rgazmalarni tashkil etamiz. Fransiya, Angliya, Shvetsiya, Yaponiya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Singapurga borish bo‘yicha taqvim rejalar shakllantirilgan. Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda 12-15-may kunlari Eronda oziq-ovqat ko‘rgazmasini o‘tkazamiz. Qator yo‘nalishdagi mahalliy tadbirkorlarni olib borib, yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni namoyish etamiz. Ahamiyatlisi, ko‘rgazma uchun oqilgan joy xarajati davlatimiz tomonidan qoplab berilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, tadbirkorlarimizning xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish imkoniyati ortyapti. Zero, bu orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti va eksporti ko‘lamini kengaytirish, savdo hajmini oshirish, sohani yanada rivojlantirish maqsad qilingan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Ikkinchi jahon urushiga Surxondaryo viloyatidan 53 ming 365 yigit jo'natilgan. Ularning 11 mingdan ortig'ini jahon maydonida mardlarcha halok bo'lgan. Ayni paytda viloyatda urush qatnashchilari, front orti faxriylari o'zining ibratli hayot yo'li bilan xalqimizga namuna bo'lib kelmoqda.

TIYRAMOHNING SOVUG'İ VA TAQDIRNING ISSIG'İ

Boysunlik Shohimardon bobo Hamroyev bosib o'tgan umr yo'li haqida o'z yaganida, suronli yillarining dahshatli voqealari ko'rsatganida gavaladanli.

— 1922-yil mart oyida hozirgi Boysun tumani Temir darvoza mahallasida dehqon oilasida dunyoga kelganman. O'sha paytlarda kur kechirishdan o'zi qiyin edi. Shunday bir pallada urush boshlangani oilamiz uchun dar ustiga chippon bo'ldi. Avval yaqinlarim, keyin amakilarim urushga ketdi. Ularning biridan xat kelib turardi, boshqasi bedarak yo'qolgan. Haqida gap quloqqa yetardi. 19 yoshda men ham urushga ketdim, — deydi Shohimardon bobo.

Dastlab urushga chaqiruv xatidan uning yaqinlari dovdirab qoldi. Endi 19 yoshga qadam qoʻygan yigit toʻrxavatlarni yelkasiga ilib urushga qoʻnadi. Dunyo borki, egzulik bor. Dunyo boʻri, gʻiromlik bor. Ammo egzulik yovuzlik ustidan doimo gʻalaba qilgan. Hamma davrda boʻlgani kabi oʻshanda hamma gʻiromliklar boʻy koʻrsatgan. Masalan, amaldorlar qarindosh-urugʻiga kelgan chaqiruv qogʻozini turfa yoʻllar bilan boshqaning nomiga oʻzgartirishga erishgan. Kimdir janggoh dahshatidan qochib, qoʻrquvdan oʻzini nogiron qilib qoʻygan, boshqasi nom-nishonsiz gʻoyib boʻlgan. Ammo qahramonimiz voqealarga, taqdirga dardli peshvoz chiqdi.

Shohimardon Hamroyevning yurugʻ orzulari bisyor edi. Lekin fashistlarga nisbatan uning qalbidagi isyon uchuqni, janglarda halok boʻlgan yaqinlari uchun ittifoq kurashga undardi.

— 1941-yilning kech kuzi edi. O'shanda eng katta bino bo'lgan kolxoz idorasiga ko'pchilik chaqirildi. Hamma — ota-onalar ham, bolalar ham yig'lagan. Harbiy libos kiygan boshliq urushga jo'natilganlarning navbatdagi ro'yxatini o'qib berib, Zug'um o'qitkazisha harakat qildi, — deydi Shohimardon bobo Hamroyev. — Menga ham "Urushga jo' nasaysan!" deb do'q qildi. "Boraman!" deya shahd bilan javob qaytardim. Urush maydonida minglab safdoshim tudek o'kildi. Urushda jon olib, jon berdim. Peshonamga bitilgan ekan, urushdan tirik qaytdim.

Shohimardon Hamroyev urushdan so'ng kadrlar tayyorlash maktabida o'qidi. Boysun qishloq xo'jaligi rivojiga hissa qo'shdi. Gengliklarda gektarlab bog' - ro'q' barpo etilishiga bosh-qosh bo'ldi. Bir etk. farzandni voyaga yetkazib, oliy ma'lumoti qildi. Bugun u 103 yoshda. Hamon dadil, gap-so'zida adashmaydi, xotirasi ham joyida.

— Olimiarning o'rganishicha, bugunga qadar insoniyat butun tarixi mobaynida bor-yo'g'i 292 yilgina urushlash yashagan. Yer yuzidagi urushlar orasida eng yirigi, talafotlisi, qonlisi o'tgan asrda sodir bo'ldi. U Ikkinchi jahon urushi nomi bilan tarixga kirdi. Buning uqubatini tortgan yurtodshlarimiz bugun hamma uchun ibrat maktabidir, — deydi tarix fani o'qituvchisi Muhiddin Xidirov.

So'lim Boysun tumanidagi tog'lar bag'rida joylashgan kichik qishloqda umrguzaronlik qilayotgan otaxonning uy shu kunlarda farzandlar, nabira va chevaralar bilan to'lgan. Bobo katta oilasini qushovida.

— Shohimardon bobo — tirik kitob. O'tgan asrning katta-kichik voqealarini oqizmay-tomizmay gapirib beradi. Xotirasi hali ham mustahkam. Har kelganimiza milliy armiyamiz haqida so'raydi. Qiziqib tinglaydi. Keyin uzundan uzoq duo qiladi, bobo boshini naqadar ulug' ne'mat ekanini o'z umri misolida tushuntiradi, — deydi Boysun tumani mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i O'rtiq Murodov. — Harbiylarga qiziquvchi yoshlarni ham olib kelinglar, ular ham mendan tinchlikdagi qarid haqida ehsitish deydi. Kelgan mehmon borki, bir asrlik umr yo'lini bosib o'tgan boboning yurtimizdagi keng ko'lamli islohotlari yangilanishlar xususidagi suhbatlarini zavqlanib ehsitadi.

Urush va mehnat faxriysi Shohimardon bobo Hamroyevning aytilishicha, yaxshi zamon, tinch vatan, to'kin dasturxon insonni yashartiradi. Uzoq yashashning siri shunda. Yaxshi kunlarning qadriga yetib, vatan ravnaqi yo'lida mehnat qilish, ezigiz ishlarni amalga oshirish esa chinakam saodat.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

A group of five children and an elderly man are sitting on a light-colored, tufted sofa. The man, wearing a black beret and a dark jacket with several medals on his chest, is seated in the center. He is surrounded by four children: two boys on the left and two girls on the right. The children are dressed in casual clothing, including a patterned sweater, a white t-shirt, and a red shirt. The setting appears to be a living room with a plain wall in the background.

Fayzulla ota 1920-yilda Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida dunyoga kelgan. 20 yoshida tengdoshlari qat'ori harbiy xizmatga chaqirilgan.

— 1940-yilda harbiy xizmatga ketganman. Belarus o'rmonlarida xizmat qilib yurgan chog'imizda — 1941-yil 22-iyuni tongida osmonda samolyotlar paydo bo'lib, boshimiz uzra bomba yog'dira boshladi, — deydi Fayzulla ota. — Keyin bilsak, urush boshlangan ekan. O'sha talato'pda qo'lmand yaralandim. Jarohatim tez kununda tuzalib ketdi. Keyin urush maydoniga kirishga tayyorlandim. Janglar boshlandi. Urush itizoribolani eslash og'ir, aslida. Xotiraman qolgan og'riqli voqealardan biri — dushmanlar butun bir qishloqni aholisi bilan yoqib yuborganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Akam va jivanlarim, xullas, oilamizdan 8 kishi urushga ketgan edi. Afsuski, hech biri tirik qaytmadi. Urush tugaguniga qadar ko'plab janglarda qatnashdim. Qo'l'mand, yelkmand yaralandim. Eng muhimi, vatanga omon qaytman. Onam urushdan qaytishimni juda itizib ko'rib kutgan ekan. Kelganimdan so'ng 3 kun o'tib, mushuparim vafot etdi...

Bolaligidan otasiga yordam berib, yaylovlarda chorvachilik bilan shug'ullangan Fayzulla ota urushdan qaytganidan so'ng dehqonchilik bilan band bo'ldi. Ammo yurtida boshlangan oziq-ovqat tanqisligi bilan bog'liq qator muammolar

sabab bir qancha hamqashiqloqlari bilan Toshkent viloyatining Oqqoʻrgʻon tumaniga koʻchib keldi.

Fayzulla otta qishloqdoshlari bilan bu yerda past-baland tepaliklarga surib chiqarib, taqir yerni boʻston qildi. Mehnatni oʻrtidan daromad topib, oilali, bola-chaqali boʻldi. Turmush oʻrtogʻi bilan birga farzandlari, soʻng nevaralarini mehnatkash, yildonli, oʻqimishli qilib tarbiyaladi. Bugun otaxon katta oilaning duogoʻyi.

— Riza-nasiba canan, shu kunlarga yetib keldim. Bugun baʼzi dangasalar ish yoʻq, pul oʻq deb nolib qoladi. Biz urush va ocharchilik yillarida ham nolimaganniz, doim imkon qidirganimiz va topganniz, — deya oʻsha yillarni eslaydi otaxon. — Allohga shukr, bugun yurtimizda toʻkinlik. Davlatimiz tomonidan bir — urush qatnashchilari va barcha keksalarga, yoshlarga ham katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bir guruh urush qatnashchilari bilan haj amallarini bajarib keldim. Tilagim — yurtimiz hamisha tinch, osmonimiz musaffo boʻlsin!

Ha, Fayzulla Nurmatov kabi soʻnmas iroda va jasorat sohiblarining safimizda turib, ehtirom va eʼzozda boʻlishi xalqimizning boyligidir.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tursunqul bobo Ergashev
1922-yilning 29-noyabrida Navoiy
viloyatining Nurota tumanidagi
G'ozg'on qishlog'ida tavallud
topgan. Ikkinchi jahon urushi
qatnashchisi bo'lgan nuroniy
o'sha og'ir yillarning yukini
yelkasida sabot bilan ko'tarib
yashadi. Bugun 103 yoshni
qarshilayotgan otaxon butun
umrini navqiron avlod ta'lim-
tarbiyasiga bag'ishladi. Asr bilan
ko'ylashgan ziyoli insonning eng
qisqa tarjimayi holi shu. Ammo
uning har bir kunini sarhisob
qilib, umr yo'lini tahlil etsangiz,
butun bir tarix ko'z oldingizda
gavdalanadi.

Prezidentimizning “Ikkinchi jahon urushida
sonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda Xotira va
rnlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va munosib
nonlash to'g'risida”gi qarorida O'zbekiston
qining tarixiy qahramonligi, fidokorona
nnatini ulug'lash, yosh avlodni vatanga sadoqatli,
tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylashga
ir insonlar etib tarbiyalash kabi ezgu maqsadlar
zlangan. Tursunqul boboning hayot yo'li ham
hlarimiz uchun ibrat bo'la oladi.

Navqiron yoshdagi Tursunqulning orzulari non edi. O'qib-o'rganishga ishtiyoq kuchli, jonlari boshqalarga ham o'rgatishni istardi. U bo's, o'qituvchilik kasbini tanladi. Dastlab 1911-yilda Nurota tumani Bog'ajot qishlog'idagi maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib addi. Ammo davqamon boshlangan urush shabab u ishini davqon ettira olmasdi. Yurtning o'g'lonlari qatori Tursunqul Ergashev ham qatnag'ajab etildi. U 1942-1945-yillarda Ikkinchi urushda qatnashdi. Nihoyat fashizm ustidan onilgan g'alabadan so'ng kam sonli safdoshlari n birga yuriga qaytish nasib etdi.

Tursunqui Ergashev qishlog'iga kelgach, yana kasbini davom ettirdi. U 1945-1951-yillarda Noriyo tumanidagi 6-maktab direktorining o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinsbosari sifatida faoliyat yuritdi. 1951-1954-yillar oraliqida esa hozirgi Samarqand davlat universitetida tahsil oldi. O'qituvchilik faoliyatida bir muddat maktab direktori, so'ng tarix fan o'qituvchisi bo'lib ishladi. Shu tariqa Tursunqul bobo 50 yil muallimlik qildi. Pensiyaga chiqsada, maktab va bog'chalardan xabar olib turishni kanda qilmadi. Umrini to'raligicha ta'limga, jamiyat taraqqiyoti uchun bag'ishladi. Yuzidan noriyo qishlog'igalari nuroniy ibrat ham mahalladoshlari, o'quvchi yoshlarga bugun maktabi bo'lib kelmekda.

Hozir G'ozg'on shahridagi "Shayxon" mahalla fuqarolar yig'inida yashayotgan Tursunqul bobo Ergashev bugungi doralamon kunlarga bot-bot shukrona aytadi. Boshqalarni ham tinchlik va farovonlik qadriga yetishga undaydi. Yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlarni ko'rib, "Oh, sening yoshliging menda bo'lsaydi!" deydi samimiyat bilan. Negaki doim jamoat ishida faol bo'lgan urunoy o'shandagi yoshlik shijoatim hozir bo'lsa-yu,

bugungi o'zgarishlarga munosib hissa qo'sham deydi.

Katta va boy hayotiy tajribaga ega otaxon hozir ham yurtdoshlarimizdan maslahatini ayamadi. Ularni g'ayrati, shijoatli bo'lishga, egzu ishlagan bosh qo'shishga chorlamogda. Nuroniy shu y'loq orqali mahallasidagi oilalar tinch-tovutligi yo'lidagi xizmat qilaypti. Ota-onalarga farzand tarbiyasida borasida maslahat beradi. Bolalarga hayot, yashab o'tgan maslahatqili yillari haqida hikoyalarni so'zlaydi. Mahalladagi har bir to'y-ma'rakaga kayvonlik qiladi. Tadbirlarni kamxar qilishga chiqadi.

Tursunqul boboning ana shunday ibratli umri munosib qadr topdi. U dastlab "Do'stlik" ordeniga munosib bo'ldi. So'ng 2019-yilda, 11 darajali mehnat faxriysi bo'krak nishoni, 2021-yilda "O'zbekiston mustaqilligiga 30 yil" esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Yetti farzandning otasi, 27 nevara va 52 chegarabir bor nuroniy bugun to ma'noda serdavlato'lib, kexsalik gashitini surmoqda.

— Bugungi e'tibor, rag'bat kishini xursand qiladi. Chunki bu kexsalarni qdrash, ularning nasihatiga quloq tutish kerak degan ma'noda yoshlarga kattalar ibrat bo'lyapti, — deydi Tursunqul bobo.

Hozirgi yoshlar juda baxtli. Bizning davrimizda o'qish, ta'lim olish uchun bugungidek shart-sharoit bo'lmagan. Nuray boshlagan binolarda, eskidarsliklardan foydalanib o'qiganmiz. O'sha davrda boshimizdan issiq-sovuq o'tib, qiyналgan eng og'ir kunlarda ham halol mehnat qildik. Luqumimiz tozal bo'lsin dedik. Farzandlarimga, o'quvchilarimga hamisha sinovlarga bardoshli, mehnatkash bo'lishni, yurtimizdagi imkoniyatlardan foydalanib, maqsad sari dadil olg'a borish kerakligini utqiram.

Ilohim, bugungiday farovon hayotimizga aslo o'z ta'limasini.

G'ozg'onlik mohir sangtarosh, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi Tohir Rahimovning aytganlari: "Tursunqul boboning tarbiyasini olgan farzandlar



el xizmatida tanilgan tadbirkor. Nevara va evaralari ham xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida xizmat qilyapti. Barchasi otaxon maslahatiga, pand-nasihatlariga amal qilib, kam bo'lmadi. Tursunqul bobo halol va sidqidildan qilgan mehnati evaziga xalq orasida katta obro'-e'tibor qozondi, bundan biz faxrlanamiz".

Jamiyat hayotida o'z o'mini topib, eliga sadoqat bilan xizmat qilgan kishi, albatta, xalq e'zoziga muayassar bo'ladi. Tursunqul bobo allaqachon anamunday insonlar sirasidan joy olgan zamonamizning fidoyilaridan biri. Tilida shukronalik, qo'li duoda bo'lgan, butun hayotini kasbiga fidoyilik bilan o'tkazgan Tursunqul bobo singari faxrilarimizning hayoti, faoliyati barchamiz uchun ibrat maktabidir.

Shahriyor XOLBOYEV,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori

haqida ham ohorsiz gapiradi, o'sha hamkasbi va hamqadami haqida sal "hidlangan" gap chiqsa, chidolmaydi, ko'ksini tog' qilib himoya qiladi.

Domla tugʻilib voyaga yetgan
Urgutdagi togʻlarni kuzatgan insonlar
biladi: bu yerda juda ulugʻvor qoyalarni
ham bor. Shu qoyalarga tuzish tarzda
Alloh yaratgan eng aziz mavjudot
— Hazrati Odam ekanini anglagan
kishilar ham bu manzili makonda
talaygina. Mehribon ustozimizning
padari buzkuvori, katta boboshi shayx
boʻlgan. Bir paytlar el boshiga ishi
tushganda, hamma dovdirash, ne qilarni
bilmay qolganda Volixxon eshon bobo,
Qutbiddinxon eshon bobo yoʻlchi yulduz
boʻlgan. Ularning jasorati, ilmu amali,
shaxs sifatida ulugʻlari boshqalarga
kuchli taʼsir koʻrsatgan. Shu valiy
insonlarning duosidan boʻlsa kerak,
Urgutda fayz bor, baraka bor. Odamlarni
oqibatlari, bir-birini jigardек yaxshi
koʻradi.

Xalqimizda “Ustoz otandagan” degan naql bor. Bu topib aytilgan maqol haqida tortishuvlar tugamaydi. Ustozlikning mo'tabar maqomini ifodalovchi bu iborada tortishadigan narsaning o'zi yo'q. Agar ustoz otadek ulug' bo'lganda, bu maqol paydo bo'lmasdi ham. Albatta, otaning o'rmini hech kim bosolmaydi, ustozning azizligi esa tengi yo'q padari buzrukvordan ham baland ko'rilishi shu maqol haqidagi barcha bahsga nuqta qo'yadi.

ya'niki poklanib kelmaganlarni hech
kechirmaydi.

Darvoce, ustozini yo'qleydigan
shogirdlar ko'p, ammo shogirdini
surishtirib turadiganlar haqida
kamdan kam eshitamiz. Muslihliddin
domlaniy ana shunday mehribon
murabbiylardan. Respublika miqyosida
taniqli jurnalistlardan biri: "Kasal bo'lib
qolgan, ikki oycha yotdim. Ana shu
vaqt davomida domla kunora yo'qlab,
maslahat va ko'mak berib turdi. Dorilamiz
vaqtda ichishdan tortib, bunday paytda
qanday ovqat va ko'katlarni ko'proq
iste'mol qilishimgacha aytib turdi."
Ustozdan uyalganimdan ham tuzalib
ketdim", deb qoldi. Bunday yuksak
mehri, holatini izohlab bo'ladimi?

Davlatimiz rahbari, ilm-fan, jonkuyari Shavkat Mirziyoyev bir nufuzli tadbirda domlamiz haqida gapirib: "Men Muslihiiddin domlani ko'rsam, to'qlinlaman. Bu kishidan juda ko'p narsani o'rganishimiz kerak", degandi. Mana shunday ehtiromga loyiq inson bilan zamondosh, uyan munosib shogird bo'lish ham katta mas'uliyat yukiyladi. Bu mas'uliyat bedorlikni, vatan ravnaqi uchun qalab qo'ri la hissa qo'shishni, neki lozim bo'lsa, barinib beta'ma va bama'n'i holda bajarishni talab qiladi. Barcha ahli ilimga ustozning yo'lini bersin deyilm.

Maqsud JONIXONOV,
jurnalista

Nargizaning nigohi stol ustidagi aviachiptaga tushdi.
“Yana ketyapti ekan-da”, deya hali diydoriga to‘ymagan onasiga zimdan qarab oldi. Onasi qayoqqadir borish taraddudida.
— Bir gap aytсам, xafa bo‘lmaysizmi, ayajon? — deb so‘radi ohista.
— Meni xafa qiladigan gap aytmassiz, qizim, — dedi ona kinoyali sizlab, o‘smir yoshidagi bolasining yuqoridagi savolidan hayratlanib.
— Dabdurustdan sizni xafa qilib qo‘ymay deyapman-da, — archiyotgan kartoshkasiga termilganicha so‘zida davom etdi qizgina. — Bugun dam olish kuni, biz bilan bo‘lasizmi yoki yana dugonalaringiz bilan “gap”ga ketasizmi? Shu suhbatimizda dadam ham bo‘lsa, yaxshi edi. Ha, mayli, dadamga siz yetkazasiz...



Xadichaxon KARIMOVA,
“Oqila ayollar” harakati a‘zosi

— Gapni ko‘p cho‘zdingiz-da, qizim. Yugurik zamonada qisqa, lo‘nda gapirishga o‘rganing. Taxminingiz juda to‘g‘ri, bugun sinfdoshlar bilan “gap”imiz bor. Tushlikni qilib bo‘lib, men qaytgunimcha kirlarni kir yuvish mashinasiga solib qo‘ying. Qilganingiz menga bo‘lsa, o‘rganganingiz o‘zingizga. Shunday qilib uy-ro‘zg‘or ishlariga ko‘nikib borasiz-da. Ukangiz ko‘chada to‘p tepib yuravermay, uyga kelib yer chopsin, kechga yaqin urug‘ sepib qo‘yamiz.
— Ayajon, chet eldan kelganingizga hali bir oy bo‘lmadi. Biz bilan bir dasturxon atrofida o‘tirishga vaqtigingiz yo‘q. Har dam olish kuni ziyofat: bir gal sinfdoshlar, bir safar kursdoshlar,

OILAVIY TARBIYA

OTA-ONALAR UCHUN, AVVALO, O‘ZINI O‘ZI TARBIYALASH DEMAKDIR



“BUYUKLARDAN BIRI “OILAVIY TARBIYA OTA-ONALAR UCHUN, AVVALO, O‘ZINI O‘ZI TARBIYALASH DEMAKDIR”, DEGANIDA NAQADAR HAQ EDI. O‘ZIMIZNI O‘ZIMIZ BUGUN TARBIYALAMASAK, ERTAGA KECH BO‘LISHINI BIR MULOHAZA QILIB KO‘RAYLIK, AZIZLAR!”



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yana birida qo‘shnilar, boshqasida qarindoshlar. Bizga esa vaqtigingiz yo‘q. Ko‘p o‘ylab, bugun sizga bor gapimni aytaman degandim-da.

Ona qizining tushkun kayfiyatiga qarab, hushyor tortdi.

— Nima gap, qizim, aytavergin, ishqilib tinchlikmi? O‘rtolaring bilan urishib qolmadingmi?..

Ona ko‘ngliga kelgan yomon fikrdan yuragi hapriqib ketdi, axir qizi juda aqli, odobli, hushyor, maktabda ham peshqadam o‘quvchilardan. Nega bunaqa deyapti?

— Mayli, aytganim bo‘lsin, — deya qiz qaddini tiklab onasiga yuzlandi. Uning nigohida boyagi tushkunlikdan asar ham qolmagandi. — Ayajon, ukam ikkimiz dadamdan, sizdan ham juda minnatdormiz. Hech narsadan kamimiz yo‘q. Og‘zimizdan chiqqanini muhayyo qilasizlar. Ammo biz mehringizga zor bo‘lib o‘sayotganimizni bilmayapsizlar. O‘zingiz aytgich: meni biror marta bag‘ringizga bosib, erkaldingizmi? O‘tish davri, nozik yosh deysizlar-u, shunday paytda yuragimdagi kechinmalarim, sirlarim bilan hech qiziqmadingiz. Dadam dam olish kunlarida bizni biror marta ham istirohat bog‘i yoki muzeyga olib bordimi? Bizni qiziqtirayotgan kitoblarni

olib berdimi? Yo‘q. Har yili Samarqandga — ulug‘ bobolarimiz maqbaralarini ziyorat qilgani boramiz deb va‘da berasizlar-u, bajarmaysizlar.

Opoqdam, buvimlar bilan yashayotganimizda bu narsa bizga bilinmagan ekan. Ular kitob olib berardi, Farg‘ona bog‘lariga olib borardi. Endi sizlarning bag‘ringizda turib, o‘zimizni yolg‘iz sezyapmiz. Dadam yarim tunda ishdan kelib, uyg‘onmasimizdan ketadi. Siz “Bo‘la qolinglar, shoshilyapman, choyingizni ichegin, maktabingizga jo‘nang”, deysiz. Menga “Repetitor yodingdan chiqmasin, puliga kuyib qolmaylik”, ukamga esa “Karatedan kelib, o‘qishga kechikmay bor”, deyishdan boshqa gapni bilmaysiz. Ishdan kelib, ovqat pishirib, idish yuvasiz. Keyin birdan televizorga yopishasiz. Ko‘z uzmay, bizni gapirtirmay, turli seriallarni ko‘rasiz. Charchab uyquga ketganimizni o‘zimiz ham bilmay qolamiz. Sirlarimiz, qiziqishlarimiz ichimizda “bo‘ynini qisib” qolaveradi.

Dam olish kunlari hamisha ziyofatingiz chiqadi. Har kuni bugun ko‘nglimdagi gapni ayamga albatta aytaman deb uyga kelaman-u,

fursat topolmayman. Bag‘ringizga singib erkalanishni, sirlarimni aytishni juda-juda istayman. Buni eshitishga sizning vaqtigingiz yo‘q. Buvijonim bo‘lsa, “Katta qiz bo‘lib qoldingiz, siringizni faqat onangizga aytgich. Eng yaqin dugonangizga ham ishonch yo‘q, faqat onaizoringiz do‘st bo‘ladi, hech qachon sizni sotmaydi, bolam”, deb nasihat qilgandi...

Qizining fikridan hayronlu bo‘lgan ona qanday javob berishni bilmay, “Qizim, sizlarni deb ishlayapmiz-da, sep-sidrig‘a yig‘ish, o‘qitish... hammasi o‘zi bo‘larkanmi?” deydi-yu, farzandi allaqachon ulg‘ayib qolganini sezmaganiidan xijolat tortib, o‘yga cho‘madi. O‘ziga kelganda esa qizining “Ayajon, bizga mehr kerak, mehr!” degan so‘zlari qulog‘i ostida jaranglardi. Shu kuni “gap”ga bormadi, safar chiptasidan ham voz kechdi...

O‘ylantiradigan holat, shunday emasmi? Azizim, aytgich-chi, nozik yoshdagi o‘smir qizigingiz yoki o‘g‘lingiz bilan qachon dildan suhbatlashgansiz? Ular internetdagi kerak-nokera ma‘lumotlar girdobiga tushib qolmadimi? Ularning ko‘nglidan qanday o‘y-xayollar kechayotganidan xabardormisiz?

Do‘stu dugonalari kim, tanisizmi? O‘g‘lingizning mo‘ylabi sabza uriy qolibdi, sezdingizmi? U kimlar bilan do‘st tutinganidan ogohimisiz?

Ustozlari ota-onalar majlisiga chorlaganda, maktabiga necha marta bora oldingiz, umuman, borganmisiz? Savol izidan savol kelaveradi. Ijboiy javoblar esa sanoqli. Biz, kattalar ba‘zan bugun o‘smirlar, yoshlarning “ommaviy madaniyat” ta‘siriga tushib qolganidan, yurish-turishiyu muomalasidagi qo‘rslikdan nolimiz. Aslida, bu holatlar hayot quvonchiyu tashvishlariga andamon bo‘lib, ortimizdan kelayotgan kelajagimiz egalari tarbiyasi bilan shug‘ullanish, qalbiga qo‘l solishga vaqt topolmayotganimizdan ekanini unutib qo‘yayotgandekmiz. Aytadilar-ku, “Yuzing qiyshiq bo‘lsa, oynadan o‘pkalama” deb.

Onalar saboq olishi uchun o‘zim guvohi bo‘lib, tahlil etgan bir misolni keltirishni joiz bildim. Ayni o‘n sakkiz yoshida qiz nomusini bir juftgina tillo tishga almashadi. Ona qizining tillo tishli bo‘lganini hatto sezmaydi. Qiz oy-kuni yetib, homilador ekanini bilgach, tish doktori bo‘lgan nomus o‘g‘risiga uni yo‘qotishda yordam so‘raydi. U nomard, mal‘un buni tan olmaydi. Kinga yo‘liqishni

BAG‘DODLIK AYOLLAR SALOMATLIGI SIRI

Sog‘lom turmush tarzining asosi jismoniy faollik va to‘g‘ri ovqatlanish. Mutaxassislar fikricha, inson kuniga 5-7 kilometr, kamida yetti yarim ming qadam yursa, qon tomir kasalliklaridan butunlay yiroq bo‘ladi. Ortiqcha vazn esa kasallik chaqiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, hozir kamharakatlik oqibatida yiliga 5,3 million odam hayotdan ko‘z yumadi. Bu oddiy raqamlar emas, aslida.

Sog‘lom turmush tarzi

Keyingi yillarda tibbiyot bilan sport hamohangligini kuchaytirish, aholini sog‘lom turmush tarziga odatlantirish orqali umrini uzaytirishga bo‘lgan e‘tibor oshdi, yangi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ish joylarida xodimlarning jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi va sog‘lom ovqatlanishi uchun zarur sharoitlar yaratish, “Sog‘lom hayot uchun 5 ming qadam” shiori ostida ommaviy yurish marafonlari, haftaning muayyan kunini avtomobilsiz o‘tkazish borasida sa‘y-harakatlar qiloch yozayotgani quvonarli.

Bag‘dod tumanidagi sport maktabi hududida Ayollar salomatlik markazi foydalanishga topshirildi. Bu yerda viloyat mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan 7,5 milliard so‘mlik qurilish, obodonlashtirish ishlari bajarildi, moddiy-texnik baza mustahkamlandi.

Markazdagi yugurish yo‘laklari va vorkaut maydonlari sog‘lom hayot tarziga amal qilayotgan xotin-qizlar bilan gavjum. Shuningdek, fitness zal, gimnastika, ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish xonalari, 81 turdagi sport anjomlari bilan jihozlangan majmua bir vaqtning o‘zida 200 ayolga xizmat ko‘rsatadi. Markazda 5 nafar malakali ayol murabbiy ishlaydi.



Chekka bir tumanda zamonaviy sport-sog‘lomlashtirish markazi ish boshlaganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Lekin o‘z hayot tarzini sog‘lomlashtirishga intilayotgan faol xotin-qizlar safi kundan kunga ortib bormoqda.

— Bo‘yim 180 santimetr, bel aylanam 140 santimetr, vaznim 105 kilo edi, — deydi Ayollar salomatlik markazining faol a‘zosi Sayyora

Qodirova. — Murabbiylar o‘lchovlarga qarab, mendagi kasalliklarni aniqlab, salomatligimni tiklash uchun maslahatlar berdi. Eng asosiysi, o‘zish va tanada qon aylanishini yaxshilash uchun ko‘proq harakat qilib, har kuni oz-ozdan ko‘paytirib borgan holda muntazam yurish va jismoniy mashg‘ulotlarni bajarishga alohida e‘tibor qaratdim. Olti oyda 30 kilo vazn tashladim.

Oyoq, bel og‘rig‘i, qon bosimi singari xastaliklar butkul chekindi.

Oltmish yoshni qarshi olgan Sayyora Qodirova har tong piyoda yurish, to‘g‘ri ovqatlanishni odat tusiga aylantiribdi. Vaqt topib salomatlik markaziga kelishni kanda qilmaydi. Shu bois, harakatlari chaqon, uy yumushlariga kamarbasta, sog‘lig‘idan nolimaydi, bardam va tetik.

Barchinoy Ne‘matova “Sho‘roqyer” mahalla fuqarolar yig‘inida yashaydi. Uch yildan beri qandli diabetdan aziyat chekadi. Kasallikka qarshi kurashish uchun turli vositalardan foydalanishga harakat qildi, lekin kutilgan natijaga erisha olmadi.

— Shifokorlar fitness sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlariga borishni tavsiya qildi, — deydi Barchinoy Ne‘matova. — Uch oydan buyon sport bilan shug‘ullanayman. Vaznim olti kiloga kamaydi. Qandli diabetdan asar ham qolmadi. Uyimizga yaqin hududda yangi zamonaviy sog‘lomlashtirish majmuasi ochilgani ayni muddao bo‘ldi. O‘zimni juda yaxshi his qilyapman. Sog‘lom turmush tarzidan xabar topgan mahalladoshlarim ham bu yerga kelib, mashg‘ulotlarda qatnashishga odatlandi.

Ayollar salomatlik markazi erta tongdan kechgacha qadar har kuni uzluksiz ishlaydi. Chunki bu majmuaqa kelib, mashg‘ulotlarda ishtirok etish xohishini bildirayotganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

— Bu yerga keluvchilarning, avvalo, jismoniy holatini aniqlab olish uchun bo‘yi, vazni, bel aylanasi o‘lchab olinib, shunga muvofiq bosqichma-bosqich mashg‘ulotlarga jalb etamiz. — deydi sport murabbiyi Gulnora Qodirova. — To‘g‘ri ovqatlanish, sog‘liq uchun foydali mashg‘ulotlar haqida ma‘lumotlar berib boramiz. Har bir mavzu yakunida vazn, bo‘yi o‘lchovlari qayta olinadi, jismoniy imkoniyatlari tahlil qilib boriladi. Chunki qilgan harakati, intilishi samarasiga ishtirokchining o‘zi ham amin bo‘lishi muhim. Qachonki mashg‘ulotlar foydasini tushunib yetgachgina, piyoda yurish, to‘g‘ri ovqatlanishni odatga aylantiradi. Piyoda yurish yurak-qon tomir, nafas olish a‘zolari kasalliklari, xavfli o‘smalar va qandli diabet kabi yuqumli bo‘lmagan xastaliklarning oldini oladi.

bilmagan soddagina qiz oxir-oqibat holatini atrofidan, yaqinlaridan yashira-yashira to‘qqiz oyni o‘tkazadi. Va og‘riq paydo bo‘lganida eng yaqin sirdosh dugonasini chaqirib, o‘zining tan olishicha, dalaga tug‘ib tashlab kelish uchun chiqib ketayotganda darvoza oldida to‘lg‘oq kuchayib, shu yerda “ko‘zi yoriydi”. Qizim ko‘richakdan aziyat chekaypti deb yugurib-yelib doktor chaqirmoqchi bo‘lgan, hech narsadan bexabar ona chaqaloqning “inga”sini eshitib, sarosimadan hushini yo‘qotadi.

Eh, afsus! Qanday onaki qizining jismu jonida, ruhiyatida kechayotgan holatni to‘qqiz oygacha sezmasa! “Men ishga erta ketib, kech kelardim, qizim hamisha uyda, ro‘zg‘or yumushlarini qilib o‘tirardi-da”, degandi o‘shanda qizning murojati asosida vaziyatni o‘rganish chog‘imizda ona ko‘z yoshlari bilan yuzini yuvib...

— Kechiringlar, mening bunday o‘g‘lim yo‘q, — deydi mahalladagi yig‘inda o‘g‘li chet eldagi ekstremistlarga qo‘shilib, kamera oldida o‘z yurtida qon to‘kish niyatida ekanini baralla ayta olgan yigitning otasi yerga boqib. — Tirikchilik ko‘yida yuraveribman-u, bolamning nazoratini unutilman. Bugun afsusdaman.

Endi o‘ylab ko‘raylik. Jamoat uni kechirganidan nima foyda? O‘g‘il tarbiyasidagi befarqlikning bu insoni otani bir umr kemirmaydimi, butun avlodiga tatimaydimi? Vatanfurush, padarkush farzandni Yaratgan ham kechirmasa kerak!

Bular juda chuqurlashgan holatlar. Eng oddiysiga ko‘chadigan bo‘lsak, ota-onalarning ko‘pi farzandi maktabdan necha baho olib kelganini so‘rab-surishtirishga ham vaqt topmaydi. Aytaylik, erta tongdan kechgacha bozorda o‘tirgan onalar qiziga bekamu ko‘st bisot yig‘ishni o‘ylaydi-yu, axloq-odobi, qaynana-qaynota, kuyov, qayin bo‘yinlariga munosabati, uy-ro‘zg‘or tutumi bilan borar joyni rozi eta oladimi deyish o‘miga asosiy xayoli bozorda ko‘radigan foydasida bo‘ladi. O‘g‘lini tezroq uylantirib, orzusi ushalishini, zimmasidagi vazifasini ado etib qo‘yishni o‘ylayotganlar o‘g‘li oila mas‘uliyatini anglab yetganmi, ota bo‘lishga tayyormi, yangi ro‘zg‘or yukini torta oladimi degan savollarni oldiga qo‘ymaydi.

Besabriklardan chirt-chirt uzilayotgan rishtalar, mo‘ltirab qolgan tirik yetim zurriyotlar, noqonuniy nikohlar va boshqa noxush holatlar Yaratganing inoyati, davlatimiz qonuni bilan barpo bo‘lgan muqaddas qasrlarni osongina qulatayotgani haqiqat. Yigitlar o‘z zurriyotini mo‘ltirab turib, arshi a‘loni titratguvchi, Allohni g‘azablantiruvchi, oilani barbod etuvchi kalohni ayoli yoki kimgadir o‘chakishib tilga olib qo‘yyapti. Buning so‘rovi bu dunyoyu u dunyo qattiq bo‘lishini bir boshqa o‘ylab ham ko‘rmayapti. “Bu bo‘lmasa, boshqasi”, deguvchilar, afsuski, kattalar orasida ham ko‘p kuzatilmogda.

Mana shularning hamma-hammasi ayrim oilalarda tirikchilik ko‘yida o‘g‘il-qizlar ma‘naviyatini boyitib borish imkoniyati ishga sola olinmayotgani, yurish-turishi, ruhiyati bilan qiziqilmayotgani, sabdga, turmush so‘qmoqlaridagi to‘siqlarni chidam va iroda bilan yengib o‘tishga o‘rgata olinmayotgani, ona qiziga, ota o‘g‘liga yilning dildoshu sirdosh bo‘lib, o‘zbekona qadriyatlarini singdirib, o‘zi ibrat bo‘lmayotgani oqibati deb o‘ylayman.

Buyuklardan biri “Oilaviy tarbiya ota-onalar uchun, avvalo, o‘zini o‘zi tarbiyalash demakdir”, deganida naqadar haq edi. O‘zimizni o‘zimiz bugun tarbiyalamasak, ertaga kech bo‘lishini bir mulohaza qilib ko‘raylik, azizlar!

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.
36390 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 tabqo. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy